جدید


Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

2024-yil 16-avgust
№ 34(34)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

## “ILM-HUNAR – DUNYONI BILISHNING KALITI”



“...Abay halollikdan saboq beradi. Halol bilan haromni ajratish, haromdan hazar, halol mol topishga undaydi. Shuning uchun ham uning she’rlari tarkibida “halol yurib, halol tur”, “halol mehnat – hech qayda gunoh emas!” kabi misralar uchraydi. Bir o‘rinda: “Halolni sotsang haromga, Xudo qabul etarma?” deb savolni qat’iy qo‘yadi...”

*(2-sahifada o‘qing).*

MUNOSABAT



# BIRLASHADIGAN VAQT KELDI

**Biz – bir guruh adiblar, olimlar, ziyolilar va jamoat arboblari Ostona shahrida ulug‘ shoir va mutafakkir, betimsol siymo Alisher Navoiy haykalining ochilish marosimiga taklif etilgandik. Guruhimiz tarkibida Sirojiddin Sayyid, Shuhrat Sirojiddinov, G‘afur Shermuhammad, Olimjon Davlatov, Dilnavoz Yusupova, Serik Usenov kabi ijodkor, olimlar bo‘lib barchamiz hayajonda edik.**

Men ulug‘ bobomizga dunyoda qo‘yilgan haykallarni eslab ketdim. Shoir tavalludining 527 yilligiga 1968-yilda O‘sh shahrida shunday haykal bo‘y ko‘rsatgan edi. U shoirning xorijda o‘rnatilgan birinchi haykali sifatida mashhur. Keyin Moskva (2002), Tokio (2004), Boku (2008), Shanxay (2017), Dushanbe (2018), Minsk (2019), Seul (2021) kabi shaharlarda Alisher Navoiyga haykallar barpo etildi. Mana, endi bu sharafli estafetani Qozog‘iston Respublikasi poytaxti Ostona davom ettirmoqda.

Ostona – yosh shahar, uning asli nomi Oq mola edi. 1997-yilda shahar Qozog‘iston Respublikasi poytaxti etib belgilangach, Ostona nomini oldi. Hozir obod va gullab-gurkirab borayotgan shahar, unda bir milliondan ortiq odam yashaydi. Bir-biriga o‘xshamas shinam binolar qad ko‘targan.

...1838–1847-yillarda Oq podsho mustamlakachilariga qarshi kurashgan jasur Kenesarixon, ayni shu yerda, Ishim va Yesil daryolari bo‘yida dushmanga qarshi ayovsiz jang olib borgan. Shu sababdan, ulug‘ xonni Ostona shahrining asoschisi deb ham ataydilar. Bundan qirq yillar muqaddam mashhur qozoq yozuvchisi Ilyos Yesenberlinning Kenesari Qosimovga bag‘ishlangan “Xan Kene” tarixiy romanini o‘qigandim va hayratlangandim.

*(Davomi 2-sahifada).*

ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 583 YILLIGI

# NAVOIY VA YASSAVIY

### BUXORO SHOGIRDI

Xoja Ahmad Yassaviy hozirgi Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyatidagi Sayram tumanida tug‘ilib o‘sgan. Bugungi paytda viloyat markazi hisoblangan Turkistonda yashab, faoliyat olib borgan bo‘lsa ham, u, birinchidan, o‘zbek bo‘lgan va o‘zbek tilida ijod qilgan, ikkinchidan, Buxoroda Eronning Hamadon shahridan kelgan shayx Xoja Yusuf Hamadoniyga murid tushib, uning huzurida tasavvufiy tarbiya topgan.

Xoja Yusuf Hamadoniyning to‘rt nafar xalifasi (o‘rinbosari) bo‘lgan. Bular – Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy. Xoja Yusuf Hamadoniydan keyin bularning har biri pirlik qilgan, ko‘p muridlari bo‘lgan.

Bulardan Xoja Ahmad Yassaviy yassaviya, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy *xojagon* tariqatlariga asos soldi. Xojagon tariqatini Xoja Bahouddin Naqshband yanada takomillashtirdi. Shuning uchun XV asrda Abdurahmon Jomiy uni *“naqshbandiya”* deb atadi.

Alisher Navoiyning avliyolar haqidagi “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” tazkirasida yassaviya tariqatining oxirgi shayxlari risolalariga tayanib dalolat qilishicha, Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston tomonlarga borib, barcha muridlarini Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyga itoat qilishga da’vat etadi. Bu ham Xoja Ahmad Yassaviyni O‘zbekistonimizga chambarchas bog‘lab turadigan yana bir nozik nuqtalardan hisoblanadi.

### YASSAVIYA TARG‘IBOTCHISI

“Nasoyim ul-muhabbat...” – aslida, piri va ustozi Mavlono Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns va hazarot il-quds” tazkirasining o‘zbekchaga tarjimasi. Biroq Navoiy uning ayrim joylarini qisqartirgan, shuningdek, yassaviya avliyolari va hind shayxlari haqidagi yangi-yangi ma’lumotlarni kiritgan. Piri va ustozi Abdurahmon Jomiy haqida bir qism qo‘shgan. Bu haqda asarning “Kirish”ida u, jumladan, shunday deb yozadi: *“...Hazrat shayx Fariduddin Attor quddisa sirruhu bitigan “Tazkirat ul-avliyo”din ba’zi kibor mashoyixkim, “Nafahot ul-uns va hazarot il-quds”g‘a doxil bo‘lmabdur erdi, har qaysini munosib mahalda doxil qildim va hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib hazrat qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj qaddasa arvohahumdin so‘nggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog‘i hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy rahimahullohudin bu zamong‘acha, ulcha mumkin bor tilab, topib, zikrlarin va ba’zi holotu so‘zlarin o‘z mahalida darj qildim”.*

“Nasoyim ul-muhabbat...”ning jami 17 faslida Xoja Ahmad Yassaviy haqida ma’lumot keltiriladi. Ayrimlarini yuqorida eslatdik.

448-raqam bilan kelgan Qusam Shayxning *“turk mashoyixidin”, “Xoja Ahmad Yassaviy xonadonidin”* ekani aytiladi. “Turk mashoyixi” deganda Navoiy yassaviya shayxlarini ko‘zda tutgan.

*(Davomi 5-sahifada).*

ZAMONAMIZ JADIDLARI

# Pastdarg‘om Quyoshi




**Maktab qurish elning bolasiga beminnat ehson. Bugunning boylari saxiy bo‘lsalar, maktab qursinlar, jadid ajdodlar kabi avlodlar ma’rifatiga hissa qo‘shsinlar. Toki yangi zamon muallimlari Muhammadsharif So‘fizoda maktabining peshtoqidagi “Men ul bo‘yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni o‘n ikki oyda oq qilaman” degan bitigini dasturlariga muhrlab, Yangi O‘zbekistonning yangi maktablarida Uchinchi Renessans darg‘alarini kamol toptirsinlar...**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 14-aprelda imzolangan “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi farmoniga asosan “ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yagona yondashuvni shakllantirish, ushbu maktablar tarmog‘ini kengaytirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda ta’lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish” maqsadida mamlakat miqyosida ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Ta’lim tizimida katta islohot bo‘lgan bu kabi xayrli ishlarda yuragida o‘ti bor tadbirkorlar, bugunning jadidlari Prezidentimizga yelkadosh bo‘lmoqda. Ular birin-ketin sarmoya sarflab, zamonaviy ta’lim muassasalarini bunyod etmoqda.

*(Davomi 3-sahifada).*

FAXRIYA



Qo‘chqor NORQOBIL

# OLIMPIADA CHEMPIONLARI

Birlashmagan barmoq qo‘lda begona,
Kim ayro, tark etar hatto soyasi.
Sizni bir musht etdi – etdi yagona
Yangi O‘zbekiston qurish g‘oyasi!

Zarb jangida oldi besh oltin o‘zbek,
Parij hayron boqdi – bu ne hol, nadir?!
Temur, Jaloliddin, Alpomish tirik
Ekanin isbotlab qo‘ydi Bahodir!

Olimp tarixiga o‘z muhrin bosdi,
Ilk oltin egasi qizing – Diyora!
Xalqim, madhing tinglab titradi rosti
Yuksaklikning ramzi – Eyfel minora!

Zo‘r bo‘lsang tan olar raqib ham kuching,
Bag‘riga bosadi hatto do‘stona!
Prezidentga bergan va’dasi uchun
Ringda g‘olib turar Hasanboy yana!

Ulug‘bek, Asadxo‘ja, Lazizbek, Razambek,
Abdumalik ukam, oltin muborak!
Olimp osmonida sport ramzidek
Akbar, Svetlana boqar mushtarak!

Alisher, G‘ulomjon, Muzaffarbekkim –
Barchangiz shu elga farzand munosib.
O‘n uch nishondorim, Sizlarni bugun
O‘zbekiston qutlar bag‘riga bosib!

Siz Yangi tarixim – qadr-qimmatim,
Shahdingizda millat matonati bor!
Shu yurtning non-tuzi haqqi-hurmati,
Sizdan xalqim rozi, Vatan minnatdor!

**11.08.2024-y.**



# BIRLASHADIGAN VAQT KELDI

Boshlanishi 1-sahifada.

Alisher Navoiy haykali shaharning markazida, serdaraxt xiyobonda joylashgan edi. Haqiqiy ishqni kuylagan ulug‘ shoir ruhiga mos, oshiqlar xiyoboni, desa yarashadi. Odam gavjum. Bu yerda shahar jamoatchiligi – arboblar, ziyolilar, shoir va adiblar to‘planishgan. Hammamiz shirin bir bezovtalik va hayajonda tantanali lahzalarni kutardik.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xiyobonga kirib kelishganda hamma oyoqqa qalqdi.

Prezidentlar oq matoni tushirganlarida ko‘z oldimizda shoirning muhtasham haykali namoyon bo‘ldi.

– Haykalning bo‘yi qancha? – deb so‘radim yonimda turgan, haykal muallifi O‘zbekiston xalq rassomi Jasvant Annazarovdan.

– Shohsupa bilan hisoblaganda bo‘yi sakkiz yarim metrdan iborat.

– Buyuk faylasuf va insonparvar shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun dunyoga tegishli noyob boylikdir. Navoiy asarlari XVI asrdayoq italyan va nemis tillariga tarjima qilingan bo‘lsa, bugungi kunda dunyoning deyarli barcha tillarida yangramoqda. Asrlar davomida hayotning o‘ziga xos ensiklopediyasi bo‘lgan uning ijodi millionlab insonlarni hayratga solib, ruhlantirib kelmoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Haykali Toshkentning markaziy maydonlaridan birini bezab turgan qozoq xalqining buyuk farzandi, qozoq adabiyotining mumtoz namoyandasi Abay Qo‘nonboyev Sharqning boshqa buyuk shoirlari qatori Alisher Navoiyni ham o‘zining ustozi deb bilgan...

Qozog‘iston Prezidenti o‘z so‘zida poytaxtda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykali o‘rnatilgani qozoq xalqining o‘zbek xalqiga bo‘lgan alohida hurmati ramzi ekaniga urg‘u berdi.

Bizni muhtasham “Ostona opera” davlat opera va balet teatriga Markaziy Osiyo va Ozarbayjon san’at ustalarining “Do‘stlik kechasi” tantanali konsertiga taklif etishdi.

Navoiy haykali poyida ikki muhtaram Prezident bilan diydorlashish nasib etgan bo‘lsa, endi zalda Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, sammitning faxriy mehmoni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev kabi hurmatli siymolar bilan birga zavqyob konsertdan bahramand bo‘ldik. Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlari baqamti, jamuljam! Folklor-etnografik ansambllar va estrada san’atkorlarining rang-barang milliy liboslarda chiqishlari, ijro etilgan milliy qo‘shiq va raqslar xalqlarimizning tomirdosh-u qondosh mushtarakligini va madaniy yaqinligini yaqqol namoyon qildi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining VI Maslahat uchrashuvi qizg‘in va jo‘shqin o‘tdi. Hurmat-u e’zoz ruhiga cho‘milgan uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Faxriy nishoni bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo yetakchilariga minnatdorlik bildirib, ushbu yuksak mukofot mamlakatlarimizning mintaqaviy hamkorlik va strategik sheriklikni mustahkamlashdagi umumiy yutuqlarining e’tirofi ekanini ta’kidladi.

– Siyosiy iroda va birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz tufayli bugun Markaziy Osiyo qo‘shnichilik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanmoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida.

Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev davlatimiz rahbariga O‘zbekiston – Qozog‘iston do‘stligini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun mezbon mamlakatning eng oliy davlat mukofoti – “Oltin Qiron” (“Oltin burgut”) ordenini tantanali ravishda topshirdi.

Biz qalam ahli, davlatimiz rahbarini qutlug‘ mukofot bilan chin yurakdan muborakbod etamiz! Bu bizga, xalqimizga berilgan mukofotdir!

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti ajoyib loyihani olg‘a surdi. Uning fikricha, ildizi, kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash, yaqin mintaqa xalqlarining yagona tarixini yaratish kerak.

O‘zbekiston Prezidenti uchrashuvda qator tashabbus va takliflarga boy, jo‘shqin nutq so‘zladi. Yurtboshimiz o‘z nutqida global jarayonning Markaziy Osiyodagi barqaror rivojlanishga ta’siri tahlilidan kelib chiqib, mamlakatlarimizning kelajagi haqida so‘zlab, mintaqada amaliy hamkorlikning qator ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Sanksiya siyosatining asiriga aylangan bir vaziyatda, milliy ID-kartalarni mintaqa miqyosida tan olish, mudofaa siyosatida hamkorlik, yagona mintaqa pozitsiyasini shakllantirish kabi takliflar – Markaziy Osiyoning dunyoga yagona kuch sifatida namoyon bo‘layotganini isbotlaydi.

Mintaqa tobora integratsiya va ittifoqchilik tomon olg‘a qadam tashlamoqda. Markaziy Osiyo yagona ittifoq tomon burildi, degan fikrlar ko‘proq jaranglamoqda, qanot yozmoqda. Markaziy Osiyo umumtelekanalini ochish zaruriyati tug‘ilmoqda. Shunday shiddatli zamonda yolg‘iz harakat qilmoq kutilgan natijalarga yetishishni uzoqlashtiradi. Mamlakatlar rahbarlari mintaqani birlashtirish, global muammolarni birgalikda hal qilish, ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish masalalariga diqqatni qaratmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarining farovonligi ko‘p jihatdan umumiy sa’y-harakatlarga, yakdillikka, mintaqa manfaatlarini birgalikda ilgari surishga bog‘liq bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan muhim strategik hujjat – Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etilmoqda. Birlashadigan vaqt keldi...

Navoiy hazratlari butun elga, insoniyatga yaxshilikni ravo ko‘rib, dushmanlikni la’natlab, ezgulikni – bahamjihatlikni, birlashishni ulug‘lab, tabarruk bir tavajjuhda jahonga boqarkan, “Farhod va Shirin” dostonida:

*Agar bir qavm, gar yuz,*
*yo‘qsa mingdur,*
*Muayyan turk ulusi*
*xud meningdur! –*


deb hayqirgan edi.

Ne hikmatki, shoir ruhini shod etib, uning haykali tantanali ochilgan Ostonada Markaziy Osiyoning uzoqni ko‘zlaguvchi zukko va donishmand rahbarlari birlashib, yakdil bo‘lib mintaqani xavfsizlikning mustahkam qo‘rg‘oniga aylantirish tashvishini chekmoqdalar... Bu naqadar quvonchli hodisa!

Ha¸ birlashadigan vaqt keldi, azizlar!

**Muhammad ALI,**
**O‘zbekiston xalq yozuvchisi**

ADABIY DO‘STLIK



# “Ilm-hunar – dunyoni bilishning kaliti” yoki Abay “Nasihatlar”i

**Har qanday ijodkor keng ma’noda ma’rifat tarqatadi; uning yuksak martabasini oriflik so‘zi bilan ifodalash o‘rinli. Ulkan qozoq adibi Abay yozgan “Nasihatlar” (45 qoraso‘z) asarini o‘qib, undagi haqqoniyat, to‘g‘rilik, oshkora iqror va shafqatsiz e’tiroflarga guvoh bo‘lish mumkin. Abay – turkiy umummilliy adib. Garchand uning nasihatlari qozoq xalqiga qaratilgan bo‘lsa-da, fikrlarining mag‘zi umuminsoniy mazmun kasb etadi.**

**Abayning “Nasihatlar”i ochiqlik, haqgo‘ylik, biror narsani yashirmasdan bayon qilish uslubiga ko‘ra o‘zbek adibi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida bayon qilingan ayrim jihatlarga o‘xshaydi. Bobur zabt etgan makonlarini obod etish bilan birga ba’zi o‘rinlarda shafqatsizliklarga ham majbur bo‘lganini ta’kidlab, o‘ziga o‘zi malomat etadi. Qilgan “har ishini xatolig‘” va “yuz qarolig‘”, deya o‘zi baho beradi.**

Yana bir mulohaza. Abayning “Nasihatlar”i mohiyatan rus adibi Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asarini ham esga soladi. Har ikki asar ham adiblar “umrining ko‘pi ketib ozi qolgan” pallasida yozilgan. Har ikki adib ham o‘z atrofiga, o‘tgan umriga nazar tashlaydi. Ammo Abayning yozganlari ko‘proq xalq manfaatiga, ijtimoiy illatlar davosiga qaratilgan. Lev Tolstoyning: “Men qilmagan jinoyat qolgan emas...”, degan iqrorlari izidan keladigan bayonlari, savollari, hayot jumboqlariga javob izlashlari – bularning barchasi ko‘proq o‘zini o‘zi taftish qilayotgan insonning individual tavba-tazarrusini eslatadi.

Abayning xuddi Lev Tolstoyga o‘xshab, ruhiy-psixologik tarafdan o‘zini o‘zi taftish etgan o‘rinlar ham uchraydi: “Men hozir tirik bo‘lib tirik, o‘lik bo‘lib o‘lik emasman. Har holda sirtim sog‘-u ichim o‘lib qolibdi. Jahlim chiqsa – izza bo‘lolmayman, kulsam – quvonolmayman, so‘zlagan so‘zlarim bari o‘zimniki emasday, hatto o‘z kulgim ham o‘zimniki emasday, hammasi begona, allakimnikiday yot tuyuladi”. Ayni fikrlarni o‘qib, adib naqadar o‘zini, dunyodagi o‘rnini qanchalar teran anglaganiga, buyuk allomalarga xos fikrlayotganiga amin bo‘lish mumkin. Shunday ma’naviy yuksak bir martabaga yetgan odamgina boshqalarga maslahat berishga haqli bo‘ladi.

Shu ma’noda, Abayning asarlari mazmunidagi ma’rifati va adibning orifligi dunyo adabiyotining eng ulkan shaxsiyatlari qatorida turadi, deyish mumkin.

Abay ilgari surgan axloqiy mezonlar inson kamolotiga oid tushunchalardir. “Quvlik va shumlik bilan kun ko‘rish, ko‘z suzib, tilanchilik qilish – bu bir hunarsiz itning ishidir”. Tilanchilik – yomon illat. “Sen agar odam bo‘lishni istasang, avvalo, o‘z g‘ayratingga tayanib mehnat qil, mehnat qilsang qora yer ham sendan o‘z noz-ne’matini ayamaydi va sen hech qachon xor-zor bo‘lmaysan”. Halol mehnat evaziga kun ko‘rish, hayot kechirish bu har qanday inson uchun zarur va muhim nasihat, albatta.

Abayning nazdida chin inson “Aqlli-hushli, adolatli, or-nomusli, insofli kishi”dir. Adib shunday odamning qadriga yetmoqni, tinchlik, ilm olish, hunarli bo‘lish va odillik uchun kurashmoqni lozim sanaydi. Shoir “ilm-hunar – dunyoni bilishning kaliti” ekanini juda yaxshi anglaydi. Ilmni quruqdan quruq bilib qo‘yish yoki maqtanib yurish uchun emas, “turmushga tatbiq qilish maqsadida o‘rganmoq kerak”. Odam o‘zi bilmagan narsasini zavqlanib o‘rgansa, turmushiga tatbiq etsa, boshqacha bir huzur-halovat topishi mumkin. Bolalar tarbiyasi uchun ham, elning tuzalishi uchun ham ilm-hunar zarur aslida. Ilm-u hunar egallash uchun mehnat-mashaqqatdan qochmaslik kerak. Hech bir zamonda olimlar bilan johillar, bilimdonlar bilan nodonlar teng bo‘lgan emas. Jumladan, Abay ta’biri bilan aytganda: “Nodonlik – bilimsizlik va dunyodan xabari yo‘qlikdir. Bilimsizlik esa – vahshiylikdir”. G‘ayratsiz va loqayd bo‘lish, ya’ni erinchoqlik “dunyodagi mavjud hamma narsaning dushmani” sanaladi. “Ilm o‘rganishni hamisha davom ettiraverish kerak”. Abayning nasihati shunday. Ilm olishdan to‘xtab qolsa, takabburlik bilan o‘zini boshqalardan ustun qo‘ysa, bunday odam oxir-oqibat johillar qatoriga qo‘shilib qoladi. Abayning ilm-ma’rifat bilan bog‘liq tushunchalari Rasulullo (s.a.v.)ning umr bo‘yi ilm olishga doir hadislari mazmuniga mos keladi. Ilm olishdan to‘xtab qolish hayot-baxsh suvning oqmay qolishidek gap. Shuning uchun ham Abay qat’iy ravishda nasihat qilib yozadi: “Xudodan qo‘rq, bandadan uyal, bolam odam bo‘lsin desang – o‘qit! Ammo hech mol-dunyongni ayama!” Bu farzandi kelajagini o‘ylagan, bolalarini ilm-ma’rifat yo‘liga boshlagan har bir ota-onaga, har bir insonga nisbatan aytilgan haqqoniy gap, albatta.

Abay – imoni butun adib. U yozadi: “Parvarish, pokizalik, rostgo‘ylik bo‘lmagan joyda imon ham bo‘lmaydi, chin ixlos bilan o‘zini o‘zi parvarishlab turmaydigan, dinga joni achimaydigan kishini “imoni bor” deb bo‘lmaydi”. Imon ta’rifini aynan shariat ahkomlariga mos ravishda shunday bayon qiladi: “Imon degan narsa – Alloh taborak va taoloning shak-shubhasiz birligi va mavjudligiga, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) orqali yuborilgan oyatlarga bo‘ysunib, inonmoq, deb tushunish kerak”. Shu tavsifdan keyin imonning ikki turini – “imoni solim” va “taqlidiy imon”ni tushuntiradi. Imonni mustahkamlash, aqlni ishlatish – Abay uchun bu ham muhim tamoyildir.

O‘zlikni anglash xususida “Agar sen ham aqlli kishilar safida bo‘lging kelsa, har kuni bir marta, yo haftada bir marta, hech bo‘lmasa oyda bir marta o‘zingga o‘zing hisob ber! O‘tgan umringni qanday o‘tkazibsan: na ilmga, na jamiyatga va na o‘zingga foydali biror ish qilibsanmi? Yo esa qanday qilib o‘tkazganligingni o‘zing ham sezmay qolibsanmi?”.

Har bir banda o‘zi qilib yurgan ishlarini Yaratguvchi biladi, ko‘radi, degan e’tiqodda bo‘lishi lozim. Abayning nazaridan bunday jihatlar ham chetda qolmaydi.

Hamma shaklan odamga o‘xshaydi. Biroq ularda ayrim botiniy va zohiriy tafovutlar bo‘ladi. “Zotan, inson farzandi bir-biridan kiyim-boshi bilan emas, balki aksincha, aqli, fazilati, ilm-hunari, or-nomusi bilan farq qiladi. Bundan boshqa narsalar bilan, men falonchidan ortiqman, deyish – bu ahmoqlikdir”. Odamni odamdan insoniy fazilatlar ajratib turadi.

Abay halollikdan saboq beradi. Halol bilan haromni ajratish, haromdan hazar, halol mol topishga undaydi. Shuning uchun ham uning she’rlari tarkibida “halol yurib, halol tur”, “halol mehnat – hech qayda gunoh emas!” kabi misralar uchraydi. Bir o‘rinda: “Halolni sotsang haromga, Xudo qabul etarma?” deb savolni qat’iy qo‘yadi. Boshqa bir she’rida:

*“Odamzod tiriklikni davlat bilsin,*
*Aql topsin, mol topsin, halol yursin”,*

– deb ta’kidlaydi.

Abayning orifligi, shoir ma’rifati negizida ana shunday insoniy tushunchalarning badiiy talqinlari kuzatiladi.

“Nasihatlar”ning ko‘p o‘rinlarida mavjud holatga ochiq-oshkora munosabat bildiriladi: “Bizning qozoqlar poygaga qo‘shgan oti oldin kelsa, kurashga tushirgan polvoni yiqitsa, uchirgan qushi ov olsa, yugurtgan iti o‘zganing itidan ilgari borib ov tutsa, yer-ko‘kka sig‘may quvonishadi”. Bu holatni Abay quvonishga arziydigan holat sanamaydi, bunday quvonch negizini u nodonlik hisoblaydi. Adib uchun ma’naviy daraja, ilm-ma’rifat, odamiy fazilatlar muhimdir. Abay insondagi yuksak fazilatlar, bilimi ko‘pligi, dunyoqarashi kengligi, axloqining go‘zalligi uchun quvonadi. Bu adibninggina emas, butun bir millatning, insoniyatning qayg‘usidir. Insonning bu dunyodan imon-e’tiqod bilan, or-nomus bilan, hayo bilan yashab o‘tish qayg‘usidir.

Qozoqlar ichida aytib kelinayotgan ayrim maqollarni Abay umuminsoniy mohiyatga ko‘ra inkor ham qiladi. Har qanday inson uchun or-nomusni qadrlaydi. “Faqir bo‘lsang – orsiz bo‘l!” degan maqol Abayning hayot dasturiga mos kelmaydi. Shu sababli “Ordan ayrilib tirik yurgandan ko‘ra o‘lgan afzal”, deb yozadi. Bu kabi maqollardan bir qanchasini tahlil qila turib xulosaga keladi: “Mana shunday kaltabinlik bilan aytilgan so‘zlardan ehtiyot bo‘lmoq kerak”.

“Nima uchun o‘zga yurtlik birovni ko‘rsak “yorug‘lik” deb atrofida parvona bo‘lamiz-u, o‘zimizning eldagi undan ham obro‘li kishilarning qadriga yetolmaymiz?” Bu hol bugun ham davom etib kelayotir. Abayning bilganlari va anglaganlari bayonini birov inkor eta olmaydi. Darhaqiqat, xorijdan ovrupolik birov kelsa, uning izidan yugurishlar hatto ilm ahli orasida ham uchraydi. Uyat bu! Hurmat, ehtirom, mehmondo‘stlik o‘z yo‘liga. Lekin boshqalar izzati o‘zini, o‘z milliy tuyg‘ularini kamsitish evaziga bo‘lmasligi lozim. Odam o‘z qadrini bilgani yaxshi; oriyat, “men”lik har bir odam shaxsining bebaho belgisidir.

Abayning nasihatlari orasida savollari ko‘p. “Sizlardan bir narsani so‘ramoqchi edim” deb boshlangan “Qirqinchi so‘z”ining hammasi savoldan iborat. Bir misol: “Nima uchun boy o‘g‘li kambag‘al bo‘lib qolsa, mehnat qilishga uyaladi-yu, o‘g‘rilik qilishga uyalmaydi? Nega?” Bunday savollar negizida didaktika, odob-axloqqa da’vat turadi. Bu savollarning javobini Abay biladi. Ammo muammoga “tajohili orif”ona usulda yondashgan muallif savol ustiga savol qo‘yadi va “nega?” deb takrorlayveradi. Fikrni bunday savol yo‘sinida bayon etish Abayning qora so‘zlariga tegishli muhim uslubiy xususiyat hisoblanadi.

Bu nasihatlarda yozilgan fikr-mulohazalar o‘zbek jadid adabiyoti namoyandalaridan biri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” didaktik risolasidagi fikrlar bilan ham uyg‘un keladi. XIX asr o‘zbek adabiyotida ham, qozoq va qoraqalpoq adabiyotida ham ma’rifatparvarlik g‘oyalari yuksak bir maqomda tarannum qilingan. Yana bir gap. Barcha turkiy xalqlar ijtimoiy hayoti, madaniyati va adabiyoti tarixida qrimlik Ismoil G‘asprali nomi bilan bog‘liq jadidlik degan cho‘ng bir hodisa bor. O‘zbek jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy sanaladi. U “Padarkush” dramasida o‘z otasi qotiliga aylangan, o‘qimagan bolaning holini bejiz tasvirlamagan. Fikrlab qaralsa, qozoq millati ma’naviy-ma’rifiy turmushidagi jadidlik harakatining boshlanishi Abayga borib taqaladi. Milliy va umuminsoniy masalalarni qardosh xalqlar adabiyoti kesimida qiyoslash uchun asoslar yetarli.

Xulosa shulki, ulkan oqin Abayning turli muammolar yechimi uchun qo‘ygan mezonlari hayotiy va haqqoniydir. Birinchi qozoq jadid adibi sifatida Abayning she’rlarida, “Nasihatlar”ida jadidlarga xos ijtimoiy islohotchilik, ilm olishga da’vat, ma’rifatni qadrlash yetakchi o‘rinda turadi. Abay ijodiga oid barcha konseptual asoslarni tugal anglash uchun uning adabiy merosini umumturkiy adabiyot kontekstida qiyosiy-tipologik metod asosida kengroq o‘rganish lozim.

**Bahodir KARIMOV,**
**filologiya fanlari**
**doktori**

XALQARO FORUM

# YURTGA QAYTGAN LOCHINLAR

**Iyulning zerikarli tunlari ruhimni ezgan, jazirama, havosiz kunlari tanimni bosgan pallada dengizi sokin, tog‘lari purviqor Ozarbayjon meni chorladi. Qaydasan, ey Fuzuliy yurti, qaydasan, ey Nizomiy diyori deya Ozarbayjon diasporasi tomonidan tashkil etilgan yoshlarning an’anaviy xalqaro yozgi forumiga yo‘l oldim. Turkman cho‘llarining adog‘ida yarqirab Kaspiy ko‘rindi. Bokuga qo‘ndik, bismillo!**



*Birinchi kun.* **O‘tganlar yodi.** Erta tongda 60 davlatdan kelgan 115 nafar yosh ishtirokchi, tadbir avvalida Haydar Aliyev saroyida jam bo‘ldi. U yerdan olimlar, yozuvchi-shoirlar, millatparvar siyosatchilar, yetuk san’atkorlarga yodgorliklar o‘rnatilgan “Faxriy xiyobon”ga yo‘naldik. Ozarbayjon xalqining umummilliy rahnamosi Haydar Aliyev qabrini, so‘ngra birinchi va ikkinchi “Shahidlar xiyoboni”ni ziyorat qilib, mamlakat mustaqilligi va hududiy yaxlitligi uchun jon fido etgan qahramonlar xotirasiga hurmat bajo keltirildi.

*Ikkinchi kun.* **Saharlab yo‘lga tushdik.** Lochinga! Samolyot Fuzuliy nomidagi Xalqaro aeroportga qo‘narkan, yuragimni bir istak chulg‘adi: qaniydi biz ham aeroport, avtovokzallarimizni shunday nomlasak. Masalan, “Cho‘lpon nomidagi xalqaro aeroport”, “Avloniy nomidagi avtovokzal!” Juda go‘zal ish bo‘lardi!

O‘z maromida ketayotgan avtobusda birdan tantanavor qo‘shiq jarangladi: *“Lochinim, Lochinim – Vatanim mani!”* Haydovchi faxr bilan e’lon qildi: *“Lochin viloyatiga xush keldingiz!”* Qarsaklar… Cho‘chigan kaptarlar osmonga sapchidi go‘yo!

Hali hech nimadan hech nima yo‘q, yo‘ldoshlarim orasida yig‘lashga tushganlari ham bo‘ldi. Shu yerda to‘xtasag-u, tiz cho‘kib, tuproqni o‘pgudek bo‘lib turganlari ham bor. Vaholanki, ularning hech biri Lochinda tug‘ilmagan. Ota-onasi, yor-u birodarining kindik qoni shu yerda to‘kilgan bo‘lsa bordir.

Bizni milliy navolar jo‘rligida kutib olishdi. Qisqagina salom-alikdan keyin hamma oromgohga joylashdi. Bir hafta mobaynida yanada yaqinroq tanishdik. Deyarli barchasi boshqa davlat fuqarolari. Lekin ota-onasi, otasi yoki onasi ozarbayjonlik. Forumga saralab taklif etilgan. O‘z sohasida muvaffaqiyatga erishgan, nufuzli joylarda tahsil olayotgan, deyarli har biri kamida uch tilda erkin so‘zlashadigan yoshlar jamlangandi.

*Uchinchi kun.* **Forumning ochilish marosimida** Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining Lochin viloyati bo‘yicha maxsus vakili Masim Mammadov, Prezident devonining Gumanitar siyosat, diaspora, multikulturalizm va diniy masalalar bo‘limi mudiri Farah Aliyeva ishtirok etdi. Ozarbayjon Respublikasi Diaspora bilan ishlash davlat qo‘mitasi raisi Fuad Muradov, Haydar Aliyev jamg‘armasi vakili Elvin Aslanov, Madaniyat vaziri o‘rinbosari Farid Jafarov so‘zga chiqdi. Ular diaspora bilan ishlash tarixi, buguni va ertasi haqida gapirib, yoshlarni birdamlikka, yurt rivoji uchun munosib hissa qo‘shishga chaqirdi. Tadbir kuy va qo‘shiqlarga ulanib ketdi.

*To‘rtinchi kun.* Tushdan so‘ng borar manzilimiz Lochin shahridagi 2-sonli maktab bo‘ldi. Shahar ozod etilgach, undagi binolar va yo‘llar qatori maktab ham qayta qurilgan. Bu galgi tadbirning nomi – “Lochinliklar Lochinda”. Ushbu qadimiy maskandan ko‘pgina olimlar, ziyolilar, san’at namoyandalari yetishib chiqqan.

Keyingi manzilimiz – “Islimi” gilamdo‘zlik korxonasi va “Gilabi Ceramics” markazi. Lochinda ishlangan hunarmandchilik mahsulotlari qadimdan mashhur bo‘lgan. Hududdagi aholini ish bilan ta’minlash va tarixiy an’analarni davom ettirish uchun bir qator ezgu ishlar amalga oshirilayotganiga guvoh bo‘ldik. Har bir sopoldagi naqsh, har bir gilamdagi jimjima menga yurtimni eslatib turdi. Axir tarixiy ildizimiz bir-da.

Qorabog‘ning noyob ijodiy loyihasi bo‘lgan “Xochazfilm” kinostudiyasi Lochin shahridagi ikkita ma’muriy bino va suratga olish pavilonidan iborat. Studiya nomi viloyatning asosiy timsollaridan sanalgan Xochaz qoyalari nomidan olingan.

Har kech oromgohga qaytgach, bo‘sh turish yo‘q. Ozarbayjon tili darslari, raqs mashg‘ulotlari tashkil etildi. Siz ulardan istalganini tanlashingiz yoki yolg‘iz qolib, tungi tog‘lar havosidan bahramand bo‘lishingiz mumkin.

*Beshinchi kun.* **Shushaga safar.** Avvalo, Askeron qal’asiga bordik. XVIII asrda Qorabog‘ xonlari farmoniga ko‘ra qurilgan qal’a bilan tanishgach, ulovimizni Xo‘jayli tomon burdik. Undan Xonkendiga o‘tdik. Aytishlaricha, bu hududda xonning yaqin qarindoshlari yashagan va hudud nomi ham shundan olingan. Aslida Xonkendi Qorabog‘ xonlari uchun dam olish maskani sifatida qurilgan. Shuningdek, bu shahar ko‘plab tarixiy, madaniy obidalarga boyligi hamda ozarbayjon millatining faxri bo‘lgan insonlar tug‘ilgan go‘sha sifatida alohida ajralib turadi.

Nihoyat, Shushaga yetdik. Uch tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan, qadimiy binolar va shahar devori qad rostlagan mo‘jaz shaharcha. Shusha Ozarbayjon musiqa va she’riyatining beshigi hisoblanadi. 2021-yil yanvar oyida “Ozarbayjonning madaniy poytaxti”, deb e’lon qilingan. Qal’a ichiga kirgach, san’atkorlarga qo‘yilgan haykallarga duch keldik.

*Oltinchi kun.* **Koinotdan Lochinga.**

Kunning birinchi yarmida “Ozarbayjon mustaqillik tarixi” nomli seminarda bo‘ldik. Ma’lumotlar qiziqarli va foydali ekanligi uchun uch soat qanday o‘tib ketganini sezmay qolibmiz. Ozarbayjon jadidlarining hayoti va faoliyati ham ibratli voqealarga boyligini his etdim.

Tushdan so‘ng, Turkiyaning koinotga uchgan ikki kosmonavtidan biri – Tuva Jihangir Atasever forum mehmoni bo‘ldi. Onasi ozarbayjon, otasi turk. Tuva Jihangir Atasever forum ishtirokchilariga koinotga parvoz va u yerda olib borilgan ilmiy izlanishlar haqida batafsil ma’lumot berib, yoshlarni qiziqtirgan savollarga javob qaytardi.

*Yettinchi kun.* **G‘arbiy Ozarbayjon tarixi.** Bu galgi tadbirda “G‘arbiy Ozarbayjonga yaqindan nazar” nomli hujjatli film namoyish etildi. G‘arbiy Ozarbayjon tarixi, madaniyatini xalqaro hamjamiyatga yetkazishda ozarbayjon diasporasining o‘rni haqida so‘z yuritildi.

*Sakkizinchi kun.* **Yopilish marosimi.** Avval, V yozgi forumning qisqacha mazmuni aks etgan videorolik namoyish etildi. Bir hafta davom etgan tadbirlar, seminarlar, davra suhbatlaridan lavhalar ko‘rsatildi. So‘ngra Diaspora ishlari bo‘yicha davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Elshad Aliyev so‘zga chiqib, yig‘ilganlarga minnatdorlik bildirdi.

U an’anaga aylangan yozgi forumlar xorijda istiqomat qilayotgan ozarbayjonlik yoshlarning ona Vatani bilan aloqalarini mustahkamlash, ularning o‘z ildizlari va madaniyatiga bo‘lgan munosabatini asrashga qaratilganligini aytib, yoshlarni diaspora faoliyatida faol bo‘lishga chaqirdi. So‘ngra forum ishtirokchilariga sertifikat va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Forum xorijda tahsil olayotgan va ishlayotgan yetuk yoshlarni Ozarbayjondagi universitetlarda dars berishga, dunyoning turli burchaklarida millat va yurt manfaatlarini himoyalashga chorlash maqsadida tashkil etilgan. Janglarda ishtirok etgan qahramonlar, qurbon bo‘lgan o‘g‘lonlarning oila a’zolari hamda urush o‘chog‘iga ko‘ngilli ravishda, ixtiyoriy jo‘nagan shifokorlar bilan bo‘lgan suhbatlar forum ishtirokchilarini chuqur o‘yga toldirdi. Mazkur uchrashuvlar sabab otasi yo onasi ozarbayjonlik bo‘lgan yoshlarning qalbida yurt va uning taqdiriga taqdirdoshlik hissi uyg‘onganini ularning ko‘zidagi o‘tdan, so‘zidagi shavqdan anglash mumkin edi. Forum davomida yoshlar tez-tez bir shiorni takrorladi: “Shahidlar o‘lmas, Vatan bo‘linmas!”

**Shahriyor SHAVKAT**

AJINIYOZ QO‘SIBOY O‘G‘LI TAVALLUDINING 200 YILLIGI



**Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining asarlari nafaqat qoraqalpoq adabiyotining, balki turkiy adabiyot va ma’naviy dunyosining sirli va suluv saroyiga aylangan edi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Chunki Ziyo‘ar taxallusiga ega shoir adabiyotni yangi uslublar bilan boyitdi. Uni shu paytda o‘zi ko‘tarilgan cho‘qqidan ham balandlikka olib chiqdi.**

**O‘zbekiston Prezidentining “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori butun umrini adabiyotga bag‘ishlagan fidoyi mumtoz adib ijodiy mehnatining yuksak e’tirofi bo‘ldi.**

# Vatanini ulug‘lagan shoir

Shoir Ajiniyoz chin ma’noda badiiy adabiyotning rivojida ulkan burilish yasashga muvaffaq bo‘ldi. Qoraqalpoq adabiyotiga yangi janrlar, yangi mazmun va shakl olib kirdi. U asrlar davomida kengliklar falsafasi asosida rivojlanib kelayotgan qoraqalpoq adabiyotini o‘z davrining oldingi tafakkuri bilan boyitdi. Vatanni, millatni baralla kuyladi.

Shoir yurtni jonday sevdi, ona tabiatda o‘sadigan har bir giyohni ko‘ziga to‘tiyo qildi: “Yiliga uch marotaba mevalab pishgan, Nomi sutilmakdek mevalarim bordir”. Vatanning ko‘rk-u jamolini shunday ta’riflash uchun ajiniyozcha ko‘z kerak edi. U o‘z xalqi qalbidagi pokiza tuyg‘ularni, ajib fazilatlarni ko‘ra oldi:

*“Yolg‘on so‘zni ishontirib aytmagan,*
*To‘g‘ri yo‘ldan bosh ketsa ham qaytmagan,*
*Nomahramni sira yo‘ldosh etmagan,*
*Nomi qoraqalpoq ellarim bordir”.*

Mana, Vatanni boricha, ajiniyozcha qalb bilan shunday sevish kerak. Afsuski, hamma ijodkorga Vatani, xalqi haqida bunday jo‘shib kuylash baxti nasib etavermaydi.

Ajiniyoz ma’rifatparvar shoir edi. Xalqining to‘liq savodli bo‘lishi uchun maktablar yetishmayotgan bir davrda o‘z asarlari orqali ularning muallimiga aylandi. Alifbo she’rlari orqali ajoyib ko‘rkam obrazlar dunyosini yaratish bilan birga o‘quvchilariga alifbodan dars berdi.

Bir asarning o‘zida yangi janr, yangi shakl, yangi mazmunni mujassam etgan shoir ijodi kelgusi avlodlar uchun hali asrlar davomida ijod maktabi bo‘lib xizmat qilaveradi. O‘z davrining katta ilmiy markazlaridan bo‘lgan Sherg‘ozixon, Qutlug‘ Murod Inoq madrasalarida ta’lim olgan shoir o‘zining ilg‘or she’riyati orqali adabiyotimizni rivojlantirish bilan birgalikda yangi tafakkurga ega o‘qirmanlar qavmini ham tarbiyalab boraveradi.


Ajiniyoz adabiyotimizga muxammas, g‘azal, murabba, ruboiy singari yangi janr va shakllarni olib kirish bilan birga turkiy she’riyot uchun murakkab vazn – aruz vaznini ham qoraqalpoq adabiyotiga singdirish yo‘lida mehnat qildi. Shoir nafaqat qoraqalpoq xalqi uchun ma’naviyat va ma’rifat mash’aliga aylandi, balki yillar davomida qo‘shni qozoq xalqi vakillarining bir necha avlodi savodxon bo‘lishida o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Shoir o‘z davrining ko‘chmanchi universiteti, ko‘chmanchi ma’naviyat markazi vazifasini ham mahorat ila ado etdi.

**Quanishboy ORAZIMBETOV,**
**filologiya fanlari doktori, professor**

# Pastdarg‘om Quyoshi

Boshlanishi 1-sahifada.

Samarqandda pastdarg‘omlik tadbirkor “Samarqand kamalak invest tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyat rahbari Quyosh Haqberdiyevni tanimagan odam topilmasa kerak. Ayniqsa, uning “Molimizda hamyurtlarimizning haqi bor”, degan gapi xalq ichida ovoza bo‘lgan. Viloyatning qayeridaki muruvvat bor, shu joyda Quyosh Haqberdiyevning nomi chiqib kelaveradi. U yuzlab ishsizlarga ish berdi, qanchadan qancha muhtojlar dasturxonini to‘ldirdi. Yuqoridagi farmonga binoan tashabbus ko‘rsatib, Pastdarg‘om pedagogika kolleji binosini



**Quyosh HAQBERDIYEV,**
**“Samarqand kamalak invest tekstil” MChJ rahbari**

qayta ta’mirlab, ingliz tili, matematika va fizikaga ixtisoslashgan zamonaviy maktab tashkil etishga 22 milliard 700 million so‘m sarmoya tikdi.

Maktab 168 o‘ringa mo‘ljallandi va uning tarkibida xuddi shuncha o‘rinli yotoqxona binosi ham bunyod etildi. Bugun Pastdarg‘om tuman 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab deb yuritilayotgan mazkur ta’lim maskanida 140 o‘quvchi bilim olmoqda. Rasmiy ochilish marosimini o‘tkazish yangi o‘quv yilining boshlanishiga rejalashtirilgan bo‘lsa-da, maktab jamoasi o‘z faoliyatini ko‘tarinki ruh va yuksak maqsadlar bilan boshlab yuborgan. Bu yerda darslar soat 8:30 da boshlanib, uzog‘i bilan 15:00 da nihoyasiga yetadi. O‘quvchilar dars tugagach, tushlik ortidan ixtisoslashgan fanlar asosida to‘garak mashg‘ulotlariga kirishadi.

Darvoqe, ushbu ilm maskanida besh mahal ovqatlanish vaqti belgilangan bo‘lib, buning uchun oyiga 170 million so‘m mablag‘ ajratilib kelinmoqda. Uch mahal issiq ovqat, bir mahal yengil tamaddi va kechki tolmachoy ota-ona bag‘ridan uzoqda ta’lim olayotgan o‘quvchilarga nafaqat jismoniy kuch, balki ruhiy quvvat ham beradi.

Maktab agentlik tizimida tashkil etilgani uchun o‘qituvchini ham, o‘quvchini ham agentlikning o‘zi tanlov asosida saralab beradi. Maktab ma’muriyati qabul ishlariga aralashmaydi. Har bir o‘quvchi o‘rni uchun yuzga yaqin bola suhbatdan o‘tkaziladi. O‘qishga qabul qilingan o‘quvchilar bilimi yangi uslubga binoan 100 ballik baholash tizimida baholanadi.

Bugungi kunda bu yangi baholash tizimiga o‘tgan maktablar soni respublikamizda 500 tani tashkil etsa, shulardan 68 tasi Samarqand viloyati, beshtasi esa Pastdarg‘om tumaniga to‘g‘ri keladi. Shu yilning sentyabridan yana o‘nta maktab ushbu tizimga o‘tishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu tizim xalqaro tajribalarda rasmiy maqomga ega bo‘la olmagan an’anaviy baholashdagi muammolarni bartaraf etadi.

Summativ baholash tizimiga o‘tishning yana bir yaxshi tomoni pedagogik jamoaning salohiyatiga qarab Vazirlar Mahkamasining 263-sonli qaroriga ko‘ra, 10 foizdan 40 foizgacha bo‘lgan ustamalar bilan rag‘batlantirilishidir. Yangi baholash tizimiga o‘tgan maktablar hisobiga 2023-24 o‘quv yilining o‘zidayoq o‘quvchi yoshlarning bilim darajasi 53 foizdan 60 foizga ko‘tarilganini hisobga olsak, kelajakda bir tadbirkor himmati bilan zamonaviy o‘quv dar-



gohiga aylangan ushbu maskandan oliy ta’lim qamrovini yuqori o‘rinlarga olib chiquvchi yuzlab iqtidorli yoshlar yetishishi shubhasiz.

Maktabda o‘quvchining toza havoda sayr qilishi, jismoniy hordiq olishi uchun ham erkin vaqt ajratilgan bo‘lib, bu kechki soat 16:00–18:00 oralig‘ida bola zehniyatining potensial susayish holatiga to‘g‘ri keladi. Kechki ovqatlanishdan so‘ng o‘quvchilar yana ixtisoslashgan fanlar mutaxassislari – C1 sertifikatiga ega yotoqxona tarbiyachilari bilan mashg‘ulotlarga sho‘ng‘iydi.

– O‘quvchilarimizning o‘qishga ishtiyoqi balandligi uchunmi, ularning ichida to‘polonchi, o‘yinqaroqlari yo‘q, – deydi maktabning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari Sobitjon Mamatov. – Bu yerga bola tarbiyasiga e’tiborli oilalarning farzandlari olingan-da. Uyida yaxshi tarbiya ko‘rgan bola maktabga ham zarar keltirmas ekan. Bo‘sh vaqtning o‘zi bo‘lmagach, u beboshlik qilishni xayoliga ham keltirmaydi. 17 yillik o‘qituvchilik faoliyatimda bolaning fanga ixtisoslashuvi foydasini shu yerga kelib bildim. Maqsadimiz o‘quvchilarimizning oliy ta’limga kirish koeffitsiyentini yuz foizga yetkazish. Hozirgacha o‘quvchilarimizdan Og‘abek Xolmamatov, Fayoz Abduazizov, Suhrob Oripov, Muhammad O‘rolov, Madina Afg‘onovalar chet tilini bilish bo‘yicha B2 sertifikatini qo‘lga kiritishdi.

Direktor o‘rinbosari hamrohligida binoni aylanar ekanmiz, maktab rahbari Anvar Davronov g‘oyasi asosida bunyod etilgan “Amir Temur bog‘lari” ansambli-

dan hayratlandik. Sinflar kesimida bo‘lib berilgan yer maydonlari buyuk sarkarda bog‘larining nomlari bilan atalib, ota-onalar tashabbusi bilan olma, o‘rik, nok ko‘chatlari, har xil turdagi gullar tartib bilan ekilgan. Har bir ekin maydonining kirish qismidagi peshlavhalarga bog‘ nomi va qaysi sinf o‘quvchilari tomonidan tashkil etilgani yozib qo‘yilgan. Qisqa vaqt ichida navnihol daraxtlarning meva bera boshlagani ko‘rgan ko‘zni quvontiradi. O‘quvchilar va ustozlar jamoasi obodonlashtirish ishlarini zimmasiga oldilar, shuningdek, jonli burchaklar tashkil etishni rejalashtirib, qushxona, quyonxona qurishdi. Tadbirkor esa binoni topshirib, “bizning ish bitdi, bu yog‘i o‘zingizga havola”, deb ketavermadi. Aksincha, bir necha bor kelib jihozlash ishlari qanday ketayotganini, darslar qanday boshlanganini kuzatdi va ota-onalar bilan suhbatlar olib bordi, el quvonchini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib suyundi.

Maktab binosida 3 ta laboratoriya, 2 ta kompyuterxona va 19 ta sinfxona, kattagina sport zali va sun’iy qoplamali futbol maydoni bor. Ayni kunlarda maktabni zamonaviy texnikalar bilan to‘liq jihozlash jarayonlari ketyapti. 4 ta elektron doska, 25 dona so‘nggi rusumdagi kompyuter va axborot-resurs kutubxonasini badiiy adabiyotlar bilan ta’minlashga kirishilgan.

Ustozlarning o‘zi tashabbus ko‘rsatib, maktab kutubxonasiga besh yuzdan ziyod kitob sovg‘a qilishdi. Sinflar kesimida kitobxonlik taqdimotlari ham boshlab yuborildi. Taqdimot har haftada o‘tkazilib, hafta uchun bir kitob belgilanadi va asar muhokamasi juda qizg‘in bahslar bilan bo‘lib o‘tadi.



**Anvar DAVRONOV,**
**Pastdarg‘om tumani 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab direktori**

Bundan tashqari o‘quvchilar zakovatchilar klubida ham har hafta olgan saboqlarini, o‘rganayotgan qo‘shimcha bilimlarini sinab ko‘radi, aql bahslarida guruhlarga bo‘linib, do‘stona kurashadi. Viloyatning boshqa-boshqa tumanlaridan kelgan o‘quvchilarni “Zakovat” intellektual o‘yini birlashtiradi.

Donishmandlar aytganidek: olijanob odatlar shaxsiy namuna tufayli shakllanadi. Darhaqiqat, ustozlardan ibrat olib, kelgusida bu o‘g‘il-qizlar ezgu g‘oyalarni ilgari surishiga, Vatan taraqqiyoti, yurt farovonligi yo‘lida sidqidildan xizmat qilishiga ishonchimiz bor. Kimga ayon, kimga noayon, lekin mamlakatda ta’lim sohasida ilgari siljish borki, bugun bizning o‘quvchi yoshlarimiz xalqaro maydonlarda ham O‘zbekiston nomini yuksakka ko‘tarmoqda. Jumladan, yaqinda Germaniyaning Gyottingen shahrida nemis tili bo‘yicha 62 davlat o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Butunjahon olimpiadasi g‘olibi bo‘lgan Rayyona Ibrohimova timsolida ana shu islohotlar yuzaga chiqarayotgan kelajagimiz umidlarini ko‘rdik.

O‘ylaymizki, Pastdarg‘omning Quyosh tadbirkori bunyod etgan muhtasham maktab ham hademay ilm-u ma’rifat mezonida yuksak natijalar berajak!

**Muhayyo PIRNAFASOVA**

# G‘ALABALAR MASKANI – YANGI O‘ZBEKISTONIM!



## DIYORA

Yapon kurashida yapon qizini
Ippon usulida yutdi Diyora.
Olimp kitobiga go‘zal ismini
Oltin harf bilan bitdi Diyora.

Qaldirg‘och-u, lochin kuchiga qarang!
Tan berdi olmon-u, yiqildi farang,
Kosovoga armon bo‘ldi so‘nggi jang,
Barchasidan bir-bir o‘tdi Diyora.

Oltin olib keldi hammadan oldin,
Yuz oltinga tengdir birinchi oltin!
Nihoyat his qildik g‘alaba totin,
Zafar qadahini tutdi Diyora.

Xushxabar shavqidan polvon elim mast,
Kurash bu – yutgay kim mashqdan erinmas,
Kimning misi chiqsa, tilla berilmas,
Oliy orzusiga yetdi Diyora.

Shohsupaga chiqdi ko‘zda yosh bilan,
Bayroqni yuksaltgan mag‘rur bosh bilan,
Shu totli lahzani zo‘r bardosh bilan
Ter to‘kib, oy-yillab kutdi Diyora.

Quvonib qutladi Millat Sardori:
“Balli, ey, xalqimning g‘ururi, ori!
Sen bois baxtlidir o‘zbek diyori...”
Hammani baxtiyor etdi Diyora.

Diyorimning oltin qizi Diyora,
To‘marisning yoniq izi Diyora.
Yurtimning yuzini charog‘on etgan
O‘zbegimning yorug‘ yuzi Diyora!

## MUZAFFAR



Kelbatida Alpomish bobosining kuchi jam,
Boysun tog‘idan sakrab, oshib keldi Muzaffar,
Olimp xayoli chorlab, tinch qo‘ymadi tushda ham,
Amudaryoday to‘lib-toshib keldi Muzaffar.

Tug‘ilgan chog‘, olamga dovruq solib yursin, deb,
Qo‘li baland el qurbin dilda olib yursin deb,
Ism qo‘ymish bobolar mudom g‘olib yursin deb,
Shu ismni oqlay deb shoshib keldi Muzaffar.

Otashnafas polvonlar yurar bunda pishqirib,
“Kim bo‘lsang ham o‘taver, yutgayman, deb, ishqilib...”
To‘rt alpning biri bo‘ldi mardonavor ish qilib,
Kim aytadi, zo‘rlardan qochib keldi Muzaffar?!

Oltin olmoq, shubhasiz, har abjirning ilinji,
Nasib qildi Parijning tillaga teng birinji,
Kun kelar, shohsupada bo‘lgay, albat, birinchi,
Chempionlikka yo‘lak ochib keldi Muzaffar.

Ikki ming yigirma to‘rt, avgust boshidir sana,
Diyorimga ulashdi yangi shodlik-tantana,
Necha go‘dakni elim Muzaffar atar yana,
Orzu-havas yog‘dusin sochib keldi Muzaffar.

Yurtboshi yuragidan quvvat olgan pahlavon
Yurt bayrog‘in yuksaltdi – yalovbardor, qahramon,
Azaldan g‘olib xalqim, muzaffardirsan hamon,
Shuhratingga yangi shon qo‘shib keldi Muzaffar!



## SITORA

G‘olibsan!
O‘ksima, singlim Sitora,
Ringda hammadan zo‘r va chiroylisan.
Raqiblar zarbingga topolmas chora,
O‘zbekning chinakam Barchinoyisan.



Fozil Yo‘ldosh bobo dostonidagi
Yuzi oy, qoshlari qunduz o‘zing-ku.
Bulung‘urning tiniq osmonidagi
Yarqiroq va yangi yulduz o‘zing-ku.

Yuragingda yolqin, bilagingda kuch,
Rom etding ne qaysar qalblarni hatto.
Agarda yo‘lingda kelib qolsa duch,
Yengarding haqiqiy alplarni hatto.

Nachora, xaloyiq ko‘ziga qarab,
Nojinslar ismi-yu jismin alishar.
Ayoli erkaklik qiladi talab,
Qizman deb qilpanglar xotinchalishlar.

Qartaygan bu esar dunyoni ko‘ring,
Kelmakda ne yanglish xulosalarga.
Azaldan mardlarning joyi bo‘lgan ring
Qoldimi hajiqiz, xunasalarga?!

Yo‘q, singlim!
Xolisdir Eng Buyuk Hakam,
Adashgan karvonni yo‘lga solgaydir.
O‘z bahosin olgay g‘irrom ham, haq ham,
Kimning zoti toza – sobit qolgaydir!

Shu bois ko‘zingda so‘nmasin hech cho‘g‘,
Elni shod etaver g‘alabang bilan.
Garchi Fozil Yo‘ldosh kabi zehnim yo‘q,
Hali sha’ningga ko‘p bitgayman o‘lan...

## ULUG‘BEK



Ulug‘bek bobomizning kenjatoy nabirasi –
Parij kahkashonini ko‘zlab keldi Ulug‘bek.
O‘zgalar ko‘zi tinib, ichga tushsa nafasi,
Oyog‘i bilan oltin yulduz terdi Ulug‘bek!

Kiftga olib Vatanning o‘n ikki burj, oyini,
Shohsupa cho‘qqisida egalladi joyini.
Qilich-u kamon kabi sermab-tortar poyini –
Temurbek navkaridek chapdast edi Ulug‘bek.

Dosh bermadi zarbiga G‘arb-u Sharq sarbozi ham,
Tushov soldi jarohat – kelmadi parvosi ham,
Qo‘sh oltinli yigitning balanddir parvozi ham,
Shoshga qarab shoshilib uchib-yeldi Ulug‘bek.

Tokioda ilk marta tilla tarix yozgandi,
Mehrini medal kabi el bo‘yniga osgandi,
Yurt Otasi “Balli!” deb bag‘riga ham bosgandi,
Oliy izzatga go‘zal javob berdi Ulug‘bek!

Xalq ishonchin oqlamoq – er yigit o‘yidadir,
Er yigitning maslagi raso-yu, o‘yi dadil.
To oyog‘ing raqiblar boshi-yu bo‘ynidadir,
Boshi osmon o‘zbegim ko‘ksin kerdi Ulug‘bek!

## PARIJ BRONZASI



G‘ulomjon, el ko‘rkidir sen kabi polvon erlar,
Shohsupani zabt etding, bosavergin oldinga:
Parij bronzasining bir xislati bor, derlar –
To‘rt yilda aylanarmish u, shubhasiz, oltinga!

## SVETA



“Sveta kim?” der farang,
Havas bilan qarashar.
Raqiblari, tugab jang,
Jim muzqaymoq yalashar.

Yog‘du sochar, ana, ko‘r,
Oyning qizi Sveta.
“O‘zbekiston” degan zo‘r
Joyning qizi Sveta!

Kumush qiz u!
Xush ko‘rib,
Oshiqlar soch tarashar.
Otabeklar tush ko‘rib,
Xayolida talashar.

Qo‘l-oyog‘i chaqqon qiz,
Abjir qizdir Sveta.
O‘zimizdan chiqqan qiz,
Gajir qizdir Sveta.

**Nodir JONUZOQ**

Shon qo‘shdi yurt shoniga,
Qarab ko‘zlar qamashar.
Shoirlar ham sha’niga
Endi maqtov qalashar.

El alqab, oqishini
Xohlagan qiz, Sveta.
Muxlislar olqishini
Oqlagan qiz, Sveta.

Shod uchar u uyiga,
Niyatiga yarasha.
Kumush qizning bo‘yniga
Kumush qanday yarashar!

Yo‘q, adashdim...
Tilla qiz!
Yana porlar Sveta.
Hali bir kun, ko‘rasiz,
Oltin olar Sveta!

## YIGITLAR

Aql va yurak kuchin bilagida jam qilib,
Raqiblar tomiriga titroq solgan yigitlar.
Sovrin yo shon uchunmas, nomus uchun jang qilib,
Ringdan chiqsa ham, qalbda muqim qolgan yigitlar.

Chayir mushagi pishgan ketmon bilan dalada,
Qamchi ostida uloq tortgan qor-u jalada.
Vatan ori tikilgan olatasir pallada
O‘z oromi, tinchidan oson tongan yigitlar.

Temur boboning temir zarbasi sizda bugun,
Nokaslarni qulatgan zardasi sizda bugun,
Buxoriy, Termiziylar daldasi sizda bugun,
Alp mushtingiz Alp tog‘in qilur talqon, yigitlar.

“Oltin olma, duo ol!” yangrar qadimiy ovoz,
Ham oltin-u ham duo olsang ammo, qanday soz!
Duo bergan xalqing ham, oltin ol, deb tursa boz,
Oltin olib, bir umr duo olgan yigitlar.

Abdumalik, Bahodir, Asadxo‘ja, Hasanboy,
Lazizbek – Olimp uzra oldingiz-ku oliy joy,
Boshingizda yuksaldi hilol – yangi balqqan oy,
Ko‘zingizdan jimirlab yulduz tomgan, yigitlar.

Olam bugun g‘avg‘oli, dunyo bugun katta ring,
Mushtini do‘laytirar mushtumzo‘rlar, desang g‘ing.
Halol kurashgan kamyob, hiyla-nayrang esa ming,
Siz borsizki, el omon, yurtga qalqon, yigitlar.

Shaksiz, zamin tozargay g‘araz-u kin gardidan,
Yer-u ko‘k zada bo‘lmish kattazanglar harbidan,
Kim zo‘ravon – yiqilgay Xudoyimning zarbidan,
Adolat chin, zolimning kuchi yolg‘on, yigitlar.



Siz g‘olibsiz!
Tantana bugun har kent, qishloqda,
Qirq quloqli qozonda zafar oshi pishmoqda.
Yurt Sarvari va millat mehrini sochgan chog‘da
Baxtiyorlik shavqiga to‘yib-qongan yigitlar.

Raqiblar tomiriga titroq solgan yigitlar,
Ringdan chiqsa ham, qalbda muqim qolgan yigitlar.
Aql va yurak kuchi bilagida mujassam,
Oltin olib, bir umr duo olgan yigitlar!

**28-iyul – 12-avgust 2024-yil**
*Toshkent – Parij – Toshkent*



# NAVOIY VA YASSAVIY

Boshlanishi 1-sahifada.

### YASSAVIYA VA NAQSHBANDIYA SINTEZI

Tazkiraning Xoja Bahouddin Naqshband haqidagi faslida bu zoti sharif Buxorodan Nasaf(Qarshi)ga borib, Qusam Shayxdan tarbiya olgani ham yoziladi. Yassaviya va naqshbandiya bir manbadan kelib chiqqani, ikkala tariqat asoschisining piri ham Xoja Yusuf Hamadoniy ekanini bilar edik. Oradan ikki asr o‘tib, Qusam Shayx bilan Xoja Bahouddin Naqshband pir-muridligi misolida bu ikki tariqat yana birlashdi, shu tariqa o‘zaro sintez hodisasi yuz berdi.



Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi.

481-raqam bilan kelgan Shayx Raziyuddin Ali Lolo G‘aznaviy haqida bir qiziq voqea bayon etiladi. Bu shayx tushida ko‘radiki, bir ulug‘ zot ko‘kka narvon qo‘yib, muridlarini osmonga yetkazayotgan ekan, uning ham qo‘lidan tutib, yuqoriga olib chiqibdi. Bu tushini otasiga aytib beribdi. Otasi o‘sha pirning nomini so‘rabdi. O‘g‘li uning oti *“Najmiddin Kubro”* ekanini aytibdi. Shunda otasi: *“Sening tarbiyang kaliti shu zotning qo‘lida, uni qidirib topishing kerak”,* debdi.

Shayx Ali Lolo Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohida xilvatda o‘lturgan edi. Ittifoqan birov Xorazmdin kelib qoldi. Xoja Ahmad Yassaviy undan: *“Xorazmda hozirgi paytda tasavvuf yo‘liga kirganlarga peshvolik qiladigan biror kishi bormi?”* deb so‘radi. Shunda u *“Shayx Najmiddin Kubro”* degan bir yigit xalqni tariqatga da’vat qila boshlaganini aytdi. Buni ichkarida turib eshitgan Shayx Ali Lolo xilvat xonasidan otilib chiqdi. Qish bo‘lishiga qaramasdan, o‘sha zahoti Xorazm sari safarga otlandi. Najmiddin Kubro huzuriga shoshildi. Kelib, sulukka mashg‘ul bo‘ldi. Keyin Najmiddin Kubroning muridi bo‘lmish Shayx Majididdin Bag‘dodiydan ham tasavvufiy ta’lim olish baxtiga musharraf bo‘ldi.

Bu tafsilotlar orqali biz Markaziy Osiyoda paydo bo‘lib, butun musulmon olamiga keng yoyilgan kubraviya, yassaviya va naqshbandiya tariqatlarining o‘zaro chambarchas aloqasi borligidan xabar topamiz.

### “TURKISTON AHLINING QIBLAYI DUOSI”

“Nasoyim ul-muhabbat...”da Xoja Ahmad Yassaviy 611-shayx sifatida keladi. Bu faslda quyidagicha ma’lumotlar keltiriladi: “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoliy va nomahsur ermish. Murid-u as’hobi g‘oyatsiz va shoh-u gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniy quddisa sirruhuning ashobidindur. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy quddusa sirruhu bila suhbat tutubdur va Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiy qaddamallohu rahmatika bila hamki, Imom Yusuf Hamadoniy rahimahullohu taolo muridlaridurlar. Imom qaysi biyik marotibg‘a yetibdurlar, musohib bo‘lubdur va ro‘zgor mashoyixidin ko‘p buzurgvorlar aning tarbiyatin topibdurlar va Shayx Raziyuddin Ali Lolo quddisa sirruhu Shayxi buzurgvor Shayx Najmuddin Kubro rahimahullohu xizmatig‘a yetardin burun Xoja Ahmad Yassaviy qaddasallohu ruhahu xizmatida bo‘lub erdi va aning xonaqohida aning irshodi bila suluk qilibdur va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur, voqe’ bo‘lubdur va Turkiston ahlining qiblayi duosidur”.

Bu yerda Navoiy *“Yassi”* deganda faqat hozirgi Yassi shahrini emas, umuman, shu viloyatni ko‘zda tutgan. Chunki bu yer Yassaviyning tug‘ilgan yurti sifatida tilga olinadi. Taxallusi ham bekorga *“Yassaviy”* emas-da.

Mazkur tazkirada yassaviya tariqati shayxlari haqida gap ketganda, tarjimon-muallif ularning Xoja Ahmad Yassaviyga aloqasini qayd etib o‘tishdan erinmaydi.

Shuni qo‘shimcha qilishimiz kerakki, Yassining nomi keyinchalik *“Turkiston”* bo‘lib ketishiga sabab ham aynan Xoja Ahmad Yassaviydir. Navoiy Xoja Ahmad Yassaviy dafn etilgan bu muqaddas makonni bejiz *“Turkiston ahlining qiblayi duosidur”,* deya tilga olayotgani yo‘q.

### TURKISTON SHAHRI NEGA “TURKISTON” DEYILGAN?

Bizda qadimdan joy nomlarini o‘sha yerda dafn etilgan avliyo zot nomi bilan atash an’anasi bor. Masalan, hozir rasman amalda bo‘lgan Toshkent shahridagi Shayxontohur, Toshkent viloyatidagi Zangiota, Namangan viloyatidagi Pop tumanlari nomlari aynan shu asosda shakllangan. Yaqin-yaqinlargacha xalq orasida Buxoroda G‘ijduvonni *“Xojayi jahon”, Shofirkonni “Xoja Orif”*, Kogonni *“Bahouddin”* deb atash bor edi.

Xuddi shunga o‘xshab, Yassini xalq bora-bora *“Xojayi Turkiston”, “Piri Turkiston”* deb atay boshlagan. Keyinchalik qisqa qilib, *“Turkiston”* deb ham ketishavergan. Rus bosqinidan keyin *“Turkiston”* Yassining rasmiy nomiga aylangan.

### “TURKISTON” ETNONIMI QACHON QAYERLARNI ANGLATGAN?

“Turkiston” etnonimi har asrda har xil hududni anglatib kelgan.

Masalan, Muhammad Narshaxiy X asrda yozgan “Buxoro tarixi” kitobida Buxoroning asr-asrlar botqoqlikdan iborat bo‘lganini, botqoqlik quriy boshlagach, bu yerga aholi ko‘chib kela boshlaganini bitadi. Jumladan: *“Aholi, asosan, Turkiston tomonlardan ko‘chib kelar edi”*, deydi.

Hozir *“Buxoroga aholi O‘zbekiston tomonlardan ko‘chib kelar edi”*, deb yozib bo‘ladimi? Yo‘q. Chunki Buxoro ham O‘zbekiston tarkibiga kiradi-da.

Demak, Narshaxiy zamonida *“Turkiston”* degan joy nomi tarkibiga Buxoro kirmagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur *“Boburnoma”* asarida otasi Umarshayxning qaynotasi, ya’ni Yunusxonni ko‘p bor Toshkentga olib kelib, unga qulay sharoitlar yaratib bergani, lekin, shunga qaramay, u yana Turkiston taraflarga ketib qolaverishini yozadi.

Demak, XVI asrda Toshkent ham *“Turkiston”* etnonimi anglatgan hududga kirmagan.

*“Turkiston”* deganda o‘tgan asrlarda, asosan, turkiy xalqlar yashaydigan hozirgi Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Sharqiy Turkiston (Uyg‘uriston), Mo‘g‘ulistonning bir qismi, Janubiy Sibir tomonlar ko‘zda tutilgan.

Rus bosqinidan keyingina ilk bor *“Turkiston”* rasmiy ma’muriy birlashmani anglatdi – Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. Lekin o‘shanda ham Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlari Turkiston general-gubernatorligiga bevosita bo‘ysunmas edi. Turkiston general-gubernatorligi hududlari aholisi Rossiya fuqarosi hisoblanardi. Shuning uchun ham 1916-yilgi mardikorlik kampaniyasida Buxoro amirligi va Xiva xonligidan mardikor olinmagan.

Darvoqe, aynan Xoja Ahmad Yassaviy haqqi-hurmati Qozog‘iston Respublikasi bu viloyatini *“Turkiston”* deb qayta nomladi va viloyat markazini ham Chimkentdan Turkiston shahriga ko‘chirdi.

### NAVOIY QALAMIDA YASSAVIYLAR

*“Nasoyim ul-muhabbat...”*da 612-raqam bilan kelgan Qutbiddin Haydar Turkiston podshohining o‘g‘li bo‘lgan. Xoja Ahmad Yassaviyga murid tushgan. Otasi har qancha urinmasin, uni bu yo‘ldan qaytara olmaydi. Yassaviy unga yaxshi tarbiyatlar berib, Xuroson viloyatiga yuboradi. U yerda *“Qutbi olam”* deya ulug‘lanadigan darajaga yetadi. Qabri Xurosonning *“Turbat”* degan yerida. Navoiy turbati, ya’ni qabri o‘sha yerda bo‘lgani uchun bu yerni xalq *“Turbat”* deb atay boshlaganini yozadi.

613-raqam bilan kelgan Hakim ato, ya’ni shayx va shoir Sulaymon Boqirg‘oniy ham Xoja Ahmad Yassaviyning muridi edi. Unga *“Hakim”* degan sharafli nomni ham aynan Xoja Ahmad Yassaviy bergan. Bir gal shayx muridlariga dashtdan o‘tin terib kelishni buyuradi. Yomg‘ir yoqqani uchun keltirilgan o‘tinlar ho‘l bo‘lib qoladi. Lekin Sulaymon Boqirg‘oniy tergan o‘tinlarini to‘niga o‘rab, quruq tarzda olib keladi. Shunda pir unga: *“Ey farzand, hakimona ish qilding!”* deydi va shu bilan bu shogird ismiga *“Hakim”* sharafi qo‘shiladi. Ayni so‘z *“donishmand”, “aqlli”* ma’nosini anglatadi.

614-raqam bilan zikr etilgan Ismoil ato Xoja Ahmad Yassaviyning *“Ibrohim ato”* degan ukasining o‘g‘li. Lekin u amakisining muridi edi. Bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Ismoil atoning qabri Turkiston viloyatining Toshkent bilan Chimkent o‘rtasida bo‘lgan Turbat qishlog‘ida.

615-raqam ostida bitilgan Is’hoq ato – Ismoil atoning o‘g‘li, otasining tasavvufiy yo‘lini davom ettirgan xalifasi.

616-raqam bilan izohlangan Xoja Bahouddin Ismoil atoning nabirasi bo‘ladi.

617-raqamli Xoja Boyazidni Navoiy: *“Atoning yaqin avlodidindur”*, deya tilga oladi. Tabiiyki, *“ato”* deyilganda Xoja Ahmad Yassaviy ko‘zda tutilgan.

### SOHIBQIRON AMIR TEMUR HAM NAQSHBANDIY, HAM YASSAVIY

Tazkiraning bu faslida Sohibqiron Amir Temur bilan bog‘liq bir muhim voqea bayon etiladi. Buyuk hukmdor shayxning suhbatiga kelayotganida ko‘nglidan: “*Bu shayxning ma’no olamidin xabari bo‘lsa, bizga issiq holva tortadi*”, degan xayol o‘tadi. Shayx oldindan muridlariga holva tayyorlashni buyurgan ekan. Shayx Amir Temurni dasturxonga taklif qilib: *“Avvali – salom, o‘rtasi – taom va oxiri – kalom!”* deydi-da, holva torttiradi. Sohibqiron shayxning karomatiga qoyil qolib, unga murid tushadi, xonaqoh qurdirib, ko‘p yerlarni unga vaqf qilib beradi.

Sohibqiron Amir Temurning xojagon tariqati pirlariga murid tushganini, Xoja Bahouddin Naqshbandning piri bo‘lgan Amir Kulolning muridi ekanini bilar edik. Demak, bundan uning yassaviya tariqati muridi ham bo‘lgani ayonlashadi.

Bundan tashqari, bizningcha, Xoja Boyazid aynan Yassida, Xoja Ahmad Yassaviy qabri yonida yashagan. Amir Temur aynan shu yerda xonaqoh va maqbara qurdirgan. Navoiy aynan shuni yozgan bo‘lishi mumkin.

### YASSAVIYNING XIRQASI KIMGA TEKKAN?

618-shayx sifatida kelgan Xoja Xalil ham Xoja Ahmad Yassaviy avlodi sifatida tilga olinadi. Hatto, Xoja Ahmad Yassaviyning xirqasi (choponi) va joynamozi *“abo an jad”*, ya’ni *“bobodan qolgan tabarruk ashyo”* sifatida shu shayxga tekkan.

637-shayx sifatida raqamlangan Keshlig‘ ato Samarqandning Keshidan, ya’ni hozirgi Qashqadaryo viloyatining Shahrisabzidan bo‘lgan. O‘sha paytlarda u o‘z yurtidan surgun qilingan. Shunda u Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy mozoriga borib, tasavvuf bilan mashg‘ul bo‘lgan. Keyin Chin (Xitoy) mamlakatiga jo‘nab, o‘sha yerda pirlik qilgan, ko‘p kishi uning muridiga aylangan. Qabri ham o‘sha yerda.

### YASSAVIYA SHAYXLARI NEGA “ATO” DEYILGAN?

639-shayx sifatida ko‘rsatilgan Sayyid ato ham Xoja Ahmad Yassaviyning yaqin qarindoshi bo‘lgan. Tasavvufda ulug‘ martabalarga erishgan. Da’vosi ham katta bo‘lgan. Hatto: *“Men va Ahmad (Yassaviy – S. O.) tengashtuk (tenglashdik – S. O.), men biyikrak erdim”,* degan. Navoiy bu zotni ba’zilar *“siyodatqa mansub”,* ya’ni, *“Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) avlodlariga tegishli”,* deb hisoblashini yozadi. Shunga qo‘shimcha qilib: *“Va turk ulusida “Ato” derlar”,* ham deydi. Bundan anglashiladiki, yassaviya tariqati vakillari nomiga *“Ato”* so‘zining qo‘shib tilga olinishi aynan ularning sayyidligiga ishora ekan.

640-shayx sifatida bitilgan Bobi mo Husaynning *“kiboriy”,* ya’ni qadimgi mashoyixlardan ekani aytiladi. Hatto, Xoja Ahmad Yassaviy kichikligida shu zot qo‘lida tarbiya topgan ekan.


### YAGONA ILDIZ

Bu ma’lumotlar bizga tariximizning ko‘p-ko‘p masalalarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Eng avvalo, biz kubraviya, yassaviya va naqshbandiya tariqatlari o‘rtasidagi tig‘iz aloqadorlikdan xabardor bo‘lamiz. Qolaversa, Markaziy Osiyo xalqlarining qoni ham, tarixi ham, madaniyati ham, ma’naviyati ham bir ildizga borib taqalishini yanada teranroq anglaymiz.

**Sultonmurod OLIM**

TABDIL



# YOZLOQLARDA

## Sayohat esdaliklaridan

**BIR OG‘IZ SO‘Z**

**Lutfilla Olimiy tomonidan yozilgan bu yo‘l sayohatida o‘sha davrning nafasi, bosqinlardan qolgan izlar suvrati ko‘zga tashlanadi. Shu bilan tarixiy manzillar esga olinadi. Bunda tilga olingan ayrim joy nomlari bugun o‘zgargan bo‘lishi ham mumkin. Sarlavhadagi birgina “yozloq” so‘zining o‘ziyoq XX asrning 20-yillarida adiblarning toza o‘zbekona so‘zlarga, ona tilga e’tiborini, so‘z izlash va noyob so‘zlarni qo‘llashga bo‘lgan ixlosini ko‘rsatadi. Zero, bugungi “dacha”, “chorbog‘” so‘zlari o‘rnida “yozloq”ni ommalashtirish ham o‘rinli ko‘rinadi.**

**TAHRIRIYAT**

### PODSHOH OTA YO‘LIDA

Namangan shahrining qut (shimol) tomonida, 85 chaqirim yiroqlikda bir yozloq bor. Uni Podshoh ota derlar. Ilgari chor hukumati vaqtida issig‘da qiynalg‘on semiz ovro‘pali boylar, to‘ralar Turkistonning issig‘ iqlimi shaharlarida chidab turolmay-turg‘on ovro‘pali “nozik” xotun-qizlar javzo (may) oyidan boshlab o‘sha yerga chiqib ketarlar; unda sof, toza havo yutub, yoqimli, kuchlik qimizlarni ichib, kumushdak suvlarida cho‘milishib qaytarlar edi. Undan tashqari turli yoqdan kelgan “sillar” ham kuch yig‘ib, qon ko‘paytirib, tiklanib ketarlar edi. Shu uchun Podshoh otaning yo‘lig‘a juda ham ahamiyat berilgan: tekislangan, ikki tomonig‘a “zarrak” daraxtlari o‘tqizilg‘on; ishqilib yo‘lchining rohati har jihatdan ta’min qiling‘on edi.

Men ham yozning bir oyini o‘tkazmak uchun Podshoh otag‘a ketayotib, o‘sha yo‘llardan o‘tib boramen. Yo‘ldoshim bu yerlarga begona kishi bo‘lg‘oni uchun unga har narsa qiziq va ajib tuyuladir. Shu uchun uning ko‘b so‘roqlarig‘a bilganimcha javob bera boramen.

Yo‘llar yaxshi, yonimizdan Podshoh otaning suvi oqadi. Ko‘b yerlardagi daraxtlar to‘palang yillarida kesilib ketkan; ularning o‘rinlarida shu yil bahorda ekilgan va endigina ko‘karib kelayotqon ko‘chatlar ko‘rinadir.

Dehqonlar hech narsadan qo‘rqmasdan bemalol ekinlik yerlarida ishlab turadirlar; o‘tkan yil juda xavflik bo‘lg‘on bu yo‘llarda biz ham ikkigina kishi vahmsiz ketib boramiz. Shu uchun o‘zimiz ham juda xursandmiz. Bulbullar, jo‘rlar, to‘rg‘aylar ham tevarak-atrofimizda, bizning xursandligimizga qo‘shulub, charaqlaydirlar!

Yetti soat yo‘l yurgandan keyin tarixiy shaharlardan bo‘lg‘on Zarkentga kirib bordiq.

### ZARKENT

Yoshlig‘imda “Hazrati Shoh Jarir” degan bir kitob o‘qig‘on edim, o‘sha kitobning ko‘rsatishiga qarog‘onda, mana shu kungi Zarkent bilan Koson va Axsikent qishloqlari – burun katta shaharlardan bo‘lg‘onlar. Unda yashag‘uvchi musulmonlarni “mug‘lar” (mo‘g‘ullar) doim jabrlab turg‘onliqlaridan, ular arabistondan ko‘mak so‘rag‘onlar(!). Hazrati Usmon nabirasi deb o‘ylanaturg‘on Shoh Jarir juda ko‘b arab amirlari va askarlari bilan birga kelib, Zarkentda hukm surub yotqon Karvonbas va Kosondag‘i Axshatga qarshi urush ochqon. Orada juda ko‘b urush bo‘lub natijada Axshat bilan Karvonbas gapni bir joyga qo‘yub, arablarga xiyla tuzog‘ini qurg‘onlar. Arablar juma namozini o‘qib turg‘on chog‘larida ular kelib qamab olg‘onlar-da, o‘ldirganlar. O‘ldirilgan arablarning jasadlari Zarkentga yaqin Isbidbo‘lan degan joyg‘a qo‘yilg‘on…

Har nima bo‘lg‘onda ham, Zarkent, jonli mol (hayvonot) savdosining markazi edi. Yettisuvdan, Ketmantepadan bu yerga necha minglab ot-mol, qo‘y haydalib kelar, necha ming pudlab bug‘doylar yo‘l bo‘yi chizilib ketgan aravalarga haftaliq-oyliq va balki yilliq yuk bo‘lurlar edi… Vaqti bilan bu qishloqda katta saroylar, go‘zal binolar bo‘lg‘on; Ovrupa usulida soling‘on rus yerlik maktabining binosi bilan o‘nlarcha xonadan iborat toshdan soling‘on kasalxona binosi – bu kichkina go‘zal qishloqqa kichkina bir shaharcha basharasini berib turg‘on. Xalqi ko‘b, dehqonchiliq ishlari rivojli bo‘lg‘on.

Hozir qishloq bir xarobadan nishon beradir. Talang‘on, yulung‘on, hech narsasi yo‘q bechoradek g‘amli-g‘amli qaraydir… Maktab binosidan ozg‘ina g‘isht qolg‘on… Kasalxonaning tosh devorlari, o‘zlarining yong‘inlarig‘a parvo qilmay kuymay qolg‘onliqlarig‘a maqtanib, gerdayib turadirlar… Boshqa imoratlar bo‘lsa yiqilg‘on, yoqilg‘on, sog‘ qolg‘onlari ham to‘rt tomong‘a yonboshlag‘on, qiyshayg‘on… Do‘konlar, samovarxonalar, saroylar albastining uyiga aylangan. Kishi yo‘q, xalq har tomong‘a qochib ketgan necha yuz uylik, necha ming kishi yashag‘on bu yerda hozir 20 uylikcha kishi qolg‘on… Bozor kuni yuztacha kishining qimirlashg‘ani ko‘rildi.

Shunday xarob, boyqush uyasi bir qishloqda ham bu yil yangi usulda bir maktab ochilibdir. Bolalari yaxshig‘ina foydalanib qolg‘onlar.

Shuni ko‘rgandan keyin ko‘zimizdan tomchi-tomchi yosh chiqdi. Faqat, u yoshlar qayg‘u yoshlari emas – umid yoshlari! Xarob qishloqlarning gullash kunlarini bizga xabar berayotqon sevinch yoshlari.

### NANAY

Zarkentda bo‘laturg‘on hodisalarni hamma vaqt kuzatib turishqa o‘rgangan Unfor tog‘idan boshlab, yo‘lning ikki tomonida baland tog‘lar uzayishib, qatorlashib ketadirlar. O‘rtada keng bir vodiy bor. Uning o‘rtasidan oppoq, kumushdak yaltirab, buralib-buralib Podshoh ota soyi oqadir. Suv – tiniq, sovuq. Zarkentdan yiroqlashg‘on sori tabiat boylig‘i, go‘zallik orta boradir. Oppoq qorlar ostidan gerdayib ko‘ringan haybatlik tog‘lar to‘rt tomondan bizga tikiladirlar… Har tomon ekin, bug‘doy. Ketgan sori salqinliq. Zarkentdan 12 chaqirim yo‘l bosib Nanayga keldik.

Zarkent ta’rif qiling‘ondan keyin Nanayni aytib o‘ltirush kerak emas. Faqat bu qishloq obodroq. Mingga yaqin xalqi bor.

Qishloq ichidan chitdarak, baland qirning etagiga, yo‘l uzasiga bir maktab soling‘on, ozg‘ina pastda boyag‘i soy shovullab oqib turadir. Dehqon bolalari ham o‘sha soyning shovullashig‘a qo‘shulub, shovullab o‘qumoqqa boshlasalar… Tarixning yangi bir varag‘i ochildi deng!

**L.OLIMIY**

*1926-yili bosilgan “Adabiyot parchalari” majmuasidan*

**Saodat FAYZIYEVA nashrga tayyorladi.**

BIZNI KEMIRGUVCHI ILLATLAR

# BUYUMBOZLIK, MATOXO‘RLIK... POYGASI qayerga olib boradi?



**Bir oycha oldingi gap: qarindoshimiz bemahal uyga kirib keldi. Kayfiyatsiz, dasturxondagi nonga qo‘l uzatgulik holi yo‘q go‘yo.**

**Ahvolini ko‘rib, “Yo‘l bo‘lsin!” so‘rash majburiyatida qoldim.**

**“Eshitgandirsiz, imoratimga zamonaviy eshik-romlarni o‘rnattirganda bankdan kredit oluvdim. Bu oy to‘lashga imkonim kelmay turibdi. Shunga...”**

**So‘nggi so‘zni aytmadi, aytishga tortindi. Demak, u qarzga pul so‘rab kelgan.**

**“Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”, degan so‘zimiz bor. Qolaversa, imorating eshig-u derazalarini rahmatli otang yasagandi. Ularni nima qilding?”**

**So‘rovimdan so‘ng yerga qaradi, ovozi ming‘irlab chiqdi: “Eskilari bog‘ orqasidagi molxonada turibdi”.**

Ma’lum bo‘ldiki, ikki yondagi qo‘shnilari uylariga o‘sha zamonaviy deb rosa maqtalayotgan eshik va derazalar o‘rnatishgan. Xotini “Biz ham o‘rnataylik, qo‘shnilardan nima kamimiz bor?” deb har kun qulog‘ini qizitgach bankka borgan. Iste’mol krediti olgan. Bu yoqda tayyor pulga “xaridor” ko‘p – shu ish bilan mashg‘ul tadbirkorlar zumda o‘sha eshik va deraza romlarini o‘rnatib berishgan. Bank esa kattagina foizli kreditni har oyda olyapti. Muhlat degani tentakning mushtidan tez keladi.

...Singlim katta tog‘amning to‘ng‘ich o‘g‘linikiga borganida eshikni ochgan ayoli baqirib yig‘lab yuboribdi. Xorijda ishlayotgan o‘g‘liga biror kor-hol bo‘ldimi deb qo‘rqib ketgan singlim. Yangamiz ko‘z yoshlarini tiya olmay dardlarini aytarmish: “Kunbotar tomondagi qo‘shnimiz uyiga yangicha eshik-oyna o‘rnattirdi. Uyi oldiga beton quyib, kafel yotqizdi. Kunchiqardagi qo‘shnimiz yengil mashina oldi. Bizlar ikki o‘rtada ko‘chaga chiqishga uyalib, shumshayib o‘tiribmiz...”

Odamlarda hashamatga mukkasidan ketish qachon paydo bo‘ldi? Bu borada o‘zaro poyga nega tobora avjiga chiqyapti?

...Adabiyotga XIX asr ikkinchi yarmida “meshchanlik” degan atama kirib kelgan. Yevropaga ergashish, hashamatli uylar tiklash, xonalarga qimmatbaho gilamlar to‘shash, javonlarni chinni idishlar bilan to‘ldirish, shipga billur qandillar osish va, albatta, bularni ko‘z-ko‘zlash puldor odamlarning yashash tarziga aylangan. Ularga ergashaman degan o‘rta qatlam vakillari qarzga botsa-da, qorni to‘ymasa-da, keraksiz jihozlar xarid qilishga umrini-sog‘ligini qurbon qilishgan.

Bu odat bizga o‘tgan asrning ikkinchi yarmida asta-sekin kirib keldi. Zamona rusumidan (aslida qo‘ni-qo‘shnisidan) ortda qolishni istamagan xonadon egalari hashamat ortidan besar ketishdi. Javonda terilib turgan chiroyli chinni idishlarga uy egasining haftada bir marta qo‘li tegardi, undayam changini artish uchun. Bu idishlarda choy ichish, ovqat tortish, qand-qurs qo‘yish hech kimning xayoliga kelmasdi. Qimmatligidan nogoh bolalari sindirib qo‘yishidan qo‘rqishardi. Uyiga kelgan mehmonga maqtanib ko‘rsatishardi, xolos.

Bu poygaga qo‘shilgan oilalar farzandiga yangi kiyim xarid qilish, uning ilm olishi uchun shart-sharoit yaratishni ikkinchi, uchinchi... o‘ninchi o‘ringa surib qo‘yishgani eng achinarlisidir.

Maktabda yaxshi o‘qigan, poytaxtdagi biror oliygohga kirish orzusida bo‘lgan farzandiga ikki qo‘lini ikki yonga yoygancha “Seni o‘qitishga pulimiz yo‘q”, deyishardi. Bu paytda shiftda billur qandil osig‘liq, javonda o‘nlab qimmatbaho chinni idishlar saf tortib turardi.

Maktabda yaxshi o‘qigan bir sinfdoshim aynan ota-onasining qimmatbaho buyum yig‘ish poygasi tufayli institut eshigini hatlab o‘tolmadi – bir umr kolxozda traktorchilik qildi...

Mustaqillikning ilk davrida o‘zaro iqtisodiy bog‘lamalar darz ketib, odamlar chor-nochor yashash majburiyatida qolishgani bor gap. Ayni shu davrda sifatsiz, “bir martalik” deb nom olgan kiyim-kechaklar, buyumlar bozorlarimizni to‘ldirgandi. Ammo vaqt kelib, o‘zimizning mustaqil yo‘limizni topganimiz, o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq odamlar boy-badavlat yashay boshladilar. Bu keskin o‘sish, ayniqsa, so‘nggi yillarda yaqqol ko‘zga tashlandi. Yigirma yil oldin yuz xonadon istiqomat qiladigan elatimizda ilk bora zamonaviy rusumdagi “Tiko” yengil mashinasini birinchi bo‘lib xarid qilgandim. (Uyam yangi emas, anchagina “charchagan” mashina edi). Bugun elatimizda deyarli har bir xonadonda yengil mashina bor. Yoki o‘sha davrda har o‘nta uydan bittasi tomi shifer qilingan bo‘lsa, bugun unday uyning o‘zi qolmadi. Yana imoratlar old qismini ovro‘pocha ta’mirlash jadal rusumga kirdi. Bu yoqda esa... imoratlar tashqarisiga zeb berish bilan bir qatorda ichkarisini keraksiz matohlar bilan to‘ldirish ham avjiga chiqdi. O‘sha eskilik sarqiti – “meshchanlik”, ya’ni latta-puttaga, turli qimmatbaho, yaltiroq buyum-jihozlarga ruju qo‘yish illati urchidi, to‘g‘rirog‘i, qayta urfga kirdi.

...Katta qizim maktabda direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari vazifasida ishlaydi. Iqtidorli o‘quvchilarni turli tanlovlarga tayyorlash, olib borish ham uning vazifasiga kiradi. O‘tgan yili shunday kuyingandi: “7-sinfda o‘qiydigan bir o‘quvchim adabiyotga juda qiziqadi. O‘ziyam kichik hikoyalar yozadi. Yozganlari adabiyot bo‘yicha ijodiy tanlovning tuman va viloyat bosqichida g‘olib deb topildi. Endi respublika bosqichiga borishi kerak edi. Ammo otasi “Bormaysan!” deb oyoq tirab olibdi. Otasini rozi qilish uchun uylariga bordim. Men o‘g‘lining iqtidoridan gapirsam, ota degan befarosat tanishlari orqali topgan Venitsian shishasidan bo‘lgan bir ko‘zani maqtaydi. Bu matoh uch ming dollar turarmish. U odamga gap tushuntirib bo‘lmadi. Yana deydi: “O‘g‘lim maktabni bitkazgach, yangi mashina olib beraman, menga o‘xshab qo‘shni davlatlarga kirakashlik qiladi”.

Uch ming dollarga qandaydir “qimmatbaho shisha ko‘za” olgan ota o‘g‘li iqtidorini namoyon qilishi uchun 100 dollarni (poytaxtga bordi-keldi xarajatlari uchun) ravo ko‘rmasligini nima deb atashni bilmadik. Sal qo‘pollashsak uzr, ertaga omonatini topshirsa o‘sha ko‘za xotirasini o‘zida saqlamas, azador to‘nini kiyib ko‘cha boshida turmas axir!?

...Poytaxtga kelishda poyezd kupesida ikki o‘rta yashar kishi bilan hamxona bo‘lib qoldim. Ulardan biri muqaddam o‘qituvchilik qilgan, tog‘asi yengil mashinalarga gaz quyish shoxobchasi qurgach, shu yerga operator bo‘lib ishga o‘tgan ekan. Cho‘ntagi pul ko‘rgan shekilli, yo‘l bo‘yi yangi qurgan imoratini italiyon uslubida qanday ta’mirlagani, vannasiga Boltiqbo‘yida ishlab chiqarilgan qimmatbaho kafel o‘rnatgani, hojatxonasiga naqd ming dollarlik eroni chig‘anoq buyurgani, mehmonxonasini “otochento” rusumida bezatgani, besh ming dollarlik mushak qandil osgani... (Ayrim qurilish ashyolari va jihozlarga ishim tushmagani uchun eslab qololmadim) haqida gap berib keldi. Ikkinchi hamrohim bu borada undan qolishmas ekan – u yangi olgan “BYD”sini qanday bezagani bormi, xotiniga tug‘ilgan kunida falon dollarga polyakcha shuba sovg‘a qilgani-yu, qizining uzatish to‘yiga o‘ris estrada yulduzi Glyukozani xizmatga olib kelganini og‘iz ko‘pirtirib maqtandi. Kamina hamrohlar suhbatiga noiloj bosh chayqagan bo‘ldim. Mavridini topib so‘rashga jur’at qildim: “Farzandlaringizni ham biror TOP-100 talikka kirgan universitetda o‘qitgan bo‘lsangiz kerak?” Bu savolimdan ijirg‘anib, ikkovi yuzimga nihoyatda ajablanib qaradi...

Latta-putta yig‘ish musobaqasi avvalo to‘y niyati tug‘ilmasdan, bola tug‘ilgandan boshlanadi. “Kelin sepi” atalmish matoxo‘rlikka kun ora duch kelamiz. Bizda – Xorazmda to‘ydan oldin “kelin kiyintirish” degan udum bor. Kuyov tomon kelinni bozorga olib boradi. Tilla taqinchoqlar va boshdan-oyoq to‘rt fasl uchun kiyimlar xarid qilinadi. Bir bosh emas, qo‘sha va qo‘sha. Bu yoqda to‘y kuni yaqinlari ham kelinga turli liboslarni to‘yona qilishadi. Qarabsizki, bir sandiq, bir kiyim javoni turli kiyim-kechaklarga to‘ladi. Almashtirib kiysa kamida o‘ttiz yilga yetgulik. O‘ttiz yilda kelinning qomati o‘zgarishi, yillar o‘tib ko‘pgina ko‘ylak, kofta, paltolar urfdan qolishi bor. Demak, falon millionga olingan shuncha kiyim javonlarda eskiradi. Yana kuya yemasin deb, tez-tez kuyadori sepishlarini ayting.

Bir qarindoshimiz qizi uchun uch-to‘rt sidra kiyim-bosh olishni talab qilganida bir taklif aytdim: “Qizingizga boshdan-oyoq kiyim olsak. Qolgan pulni (ozmas, taxminimcha o‘ttiz million so‘mlarga yaqin edi) bankka qo‘ysak. Eng kami yiliga 18 foiz beradi. Yangi oilasi qozonini qaynatishga yetadi va yana keyinchalik o‘zi tanlab kiyim olar”. “Nima, qizim boshqalardan kammi? Elda yurib turganidek kiyim-bosh olasizlar. Bo‘lmasa beradigan qizim yo‘q!”

Tushuntirish ortiqcha edi.

...Nevaram tug‘ilganida to‘yxonada “beshik to‘yi” o‘tkazdik. To‘ydan so‘ng ayollar tomonidan to‘yona sifatida keltirilgan mato va allambalolarni tashishga bir mashina kerak bo‘ldi. Ishonasizmi, chiroyli, yaltiroq jomadonning o‘zidan yigirmata bor. Bu jomadonda bolalar va kattalar uxlaganda ustiga yopadigan yopqich (odeyalo) bor ekan. Ayolim ulardan uchtasini kelinga berdi, beshtasini sandiqqa bosdi: “Bularni qaytarishim kerak. Axir, to‘yona qarz. Qolganini do‘konga topshiramiz”.

O‘sha vaqtda (sakkiz yil oldin) bu “to‘ykezar, to‘zimas jomadon”ning narxi ellik ming so‘m ekan. Do‘kon egasi ularning har birini o‘ttiz besh ming so‘mdan qabul qilib olibdi.

Keyin bildimki, shu kabi “to‘y sovg‘alari” sotadigan do‘konlar sotib-qaytarib olish operatsiyasidan yaxshigina pul ishlasharkan. “To‘y mavsumida ba’zi kunlari yuz dona shunday sovg‘a sotsam, yana kamida yetmish-saksontasini to‘y egalaridan qaytarib olaman, deyarli yarim bahosiga. Bu men uchun biznes”, deydi do‘kondor.

Kelin to‘ylarida (beshik to‘ylarida ham shu ahvol) ayollar to‘yona sifatida keltirgan turli matolar taqdiri ham shunday. Aksari “qarzni qaytarish uchun” sandiqlarda yillab chang bosib yotadi, bir qismi do‘konlarga qaytarib beriladi.

Mana keraksiz buyumlar, matolarga o‘chlik – go‘yo buni qadim qadriyat sifatida an’anaga aylantirishning ahvoli.

To‘y mayli, ammo azaga ham shu latta-putta degani boshini suqqan. Janoza o‘qilguncha azador xonadonga keladigan ayollar, albatta, marhum ustiga tashlash uchun turli mato, ro‘mollar olib kelishadi. Mayitni yuvish arafasida o‘sha matolar yig‘iladi – ikki qopga zo‘rg‘a sig‘adi. Azador uy egasi keyin bu keraksiz matolarni sandiqqa bosadi – ertaindin birov olamdan o‘tsa olib boradi-da. Hatto ayrimlari do‘kondorlar bilan kelishib, yarim bahosiga bo‘lsada qaytarib topshiradi. Qanchalik qimmat, zamonaviy rusumda bo‘lmasin bu matolardan ko‘ylak, lozim tiktirib kiyib bo‘lmaydi. Axir bu matolar o‘likning ustiga yopilgan.

Bolalik vaqtida onam rahmatli xonalardagi derazalarga bir enlik parda osardilar – tashqaridan birov qaraganda ichkari ko‘rinmasligi uchun. Vaqt o‘tgan sari parda-parda qadar kattaydi – hozir derazalarga shipdan polga qadar va yana butun devorni egallagan ulkan darpardalar osilmoqda. Derazani qo‘ya turaylik, darparda degani eshiklarni ham qopladi. Besh xonalik qishloq uyida shunday eshik va deraza darpardalaridan kamida o‘ntasi osig‘liq. Bu darpardalarning eng arzoni ikki million so‘m atrofida. Ana endi bu yog‘ini o‘zingiz xomcho‘t qilavering.

Ham kulgili va ayanchli holat: o‘sha karantin vaqtida “temir daftar”ga kirgan bir oila ehtiyoji uchun har oyda oziq-ovqat, pul muntazam berib turildi. Sayyor qabullardan birida “temir daftar”da turgan ayol hokimga nima deb murojaat qildi deng: “Har oy yordam berib turishibdi, buning uchun rahmat! Ammo, iltimosim hech bo‘lmasa ko‘cha tomondagi derazalarimga darparda olishda moddiy yordam bersanglar. Shunday darpardam yo‘qligi uchun qo‘shnilardan uyalyapman”.

Otam rahmatli kolxoz beradigan arzimas maoshidan tejab-tergab bir dona gilam olganini (uni ham olib-sotardan topgan) bilaman – o‘sha vaqtda yetti yashar bolakay edim. Bu gilam uzoq yillar xona devoriga qoqilib turdi. Biz bolakaylar gilamni silab, rohatlanardik o‘zimizcha. O‘sha vaqtda gilam devorga qoqiladigan hasham emas, odamlar ustida o‘tiradigan poyondoz ekanini bilmasdik. Bugun har bir xonadonda kamida o‘n-o‘n beshta gilam bor. Ularning yarmisi xonalarga to‘shalsa qolganlari o‘ralgancha devorga tiklab qo‘yiladi – kelgan mehmonlar uyda gilamlar ko‘pligini bilishlari uchun.

O‘rtacha besh kishi istiqomat qiladigan xonadonda shunga o‘xshash keraksiz – “o‘lik bejama matohlar” taxminan qancha ekanligini o‘zimcha hisoblab ko‘rdim. O‘rtamiyona oilada kamida qirq million so‘m atrofida. O‘ziga to‘qlar haqida aytmayapman.

Bular qishloqdagi ahvol, shaharlardagi xonadonlarda bu miqdor bir necha baravar ko‘pligi kundek ravshan.

Istaymizmi-yo‘qmi bugun aksar oilalarning “ro‘zg‘or g‘aznasi”ning katta qismi shu kabi keraksiz buyumlarga sarflanmoqda. Internet tarmog‘ida turli savdo-sotiq kanallari tinimsiz o‘zlarining shunga o‘xshagan matohlarini “Zamonaviy yashang! Bizdan xarid qiling!” deb reklama qilishlari natijasida ayrim narsalar yil o‘tmay eskirib, yangilari paydo bo‘lmoqda. Shu yangilarini xarid qilgan o‘ziga to‘q xonadonlar boshqalarga turtki beryapti. Yo‘q, boshqalar ko‘zini qizdirmoqda. Buyumbozlik, matoxo‘rlik shu taxlit kunaro avj olayotir.

Vaqtli nashr imkonidan kelib chiqib, ayrim holatlarga to‘xtaldik xolos. Barchasini yozaman desa, tom-tom kitob bo‘lgulik.


Bu ofatga qachon chek qo‘yar ekanmiz? Qo‘ya olamizmi?

**Ro‘zimboy HASAN,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi**

TARIX VA TAQDIR

## MILLAT FIDOYILARI:

# ABDURAHMON ABDULLAXONOV



**Qo‘limizdagi hujjat mahbus Abdurahmon Abdullaxonovning 5369-sonli ayblov ishi yuzasidan NKVD Marg‘ilon shahar boshlig‘i Davlat xavfsizligi katta leytenanti Kuleshovning ayblov xulosasi. U O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblangan. Ayblov xulosasi quyidagicha:**

“Sobiq podshoh amaldori, davlat dumasi a’zosi, yirik savdogar, muxtoriyatchilik harakati ishtirokchisi, aksilinqilobiy tashkilot “Milliy ittihod”ning rahbari aksilinqilobiy ishlari va 1920-yili bosmachilar to‘dasi bilan aloqada bo‘lgani uchun Marg‘ilon shahrida FK tomonidan hibsga olingan. Shu kunda dushman kayfiyatida bo‘lgan Abdurahmon Abdullaxonov aksilinqilobiy guruhlar va boshqalarni o‘z atrofiga to‘plab, ish olib borgan, partiya va Sovet hokimiyati tadbirlariga qarshi norozilik ko‘rsatgan.

Paxta zavodiga rahbar paytida tuzumdan norozi bo‘lgan Karimboboyev, Mulla Mamasharipovlarni o‘z tomoniga og‘dirib, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot raisi o‘rinbosari sifatida bosmachilikni qo‘llab-quvvatlab, sovetlarga qarshi kurash olib borgan. 1920-yili millatchilik, teskarichilik, 1933-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun Marg‘ilon GPUsi tomonidan qamoqqa olingan.

Ish bo‘yicha tergov jarayonida quyidagilar aniqlangan: avval aksilinqilobiy kayfiyatda bo‘lgan, muxtor hukumat davrida ad’yutant bo‘lib, “Milliy ittihod”ning faol a’zosi sifatida davlatga qarshi kurash olib borgan. 1920-yili Marg‘ilon ChKsi ad’yudanti, Marg‘ilon uyezd-shahar revolyutsion komiteti sobiq raisi, hozirda xalq dushmani Shomansur Alixo‘jayev yordami bilan jazodan qutulib qolgan.

1922-yili qo‘rboshi Muhammad Ibrohimov Marg‘ilon rayoni militsiyasi birinchi boshlig‘i etib tayinlandi. Militsiya sobiq bosmachilar bilan aksariyat kambag‘al dehqonlarni talashgan, terror etgan, ularning ayollarini zo‘rlagan, qarshilik ko‘rsatganlarni o‘ldirishgan. Shuningdek, ular Sovet hokimiyatiga ishongan, halol militsiya xodimlarini, masalan Yusufjon Tojik va boshqalarni ham o‘ldirgan. Marg‘ilon shahrida yer-suv islohotini o‘tkazish davrida Karimboboyev shtab raisi bo‘lgan, xizmat vakolatini suiiste’mol qilib aksilinqilobiy tashkilot “Milliy ittihod” topshirig‘i bo‘yicha ongli ravishda partiya va hukumatning direktivalarini buzgan. Karimboboyev avvalida aksilinqilobiy “Milliy ittihod”ning kotibi bo‘la turib, 1935-yilgacha xalq dushmanlari – Markaz xodimlari, hozirda qamoqqa olingan Shomansur Alixo‘jayev, Abdulla Karimov va boshqalar bilan yaqindan aloqada bo‘lgan.

Abdurahmon Abdullaxonovning o‘zi – yirik boy, paxta tayyorlovchi zavodchi, quloq. Qo‘qon muxtor hukumatining a’zosi. Marg‘ilondagi “Milliy ittihod” tashkiloti raisining o‘rinbosari va a’zosi. Bosmachilar to‘dasini tashkil etgan, qurol-aslaha bilan ta’minlagan. 1920-yili Karimboboyev va “Milliy ittihod”chilar bilan birgalikda Marg‘ilon favqulodda komissiyasi tomonidan hibsga olingan. Biroq Marg‘ilon uyezd-shahar revolyutsion komitetining sobiq raisi Shomansur Alixo‘jayev tomonidan ozod qilingan.

Abdurahmon Abdullaxonov 1929-yili Marg‘ilondagi aksilinqilobiy tashkilot “Azizovchilik”ning rahbari bo‘lgan. Bu tashkilot aksari o‘quv muassasalarida millatchilik ishlarini olib borib, o‘quvchilarning kommunistik tarbiyasini orqaga surgan. Abdullaxonov o‘qituvchilik qilish bilan birga o‘quvchilar orasida fashistik targ‘ibot olib borgan. Buning uchun u Marg‘ilon rayon ijroiya komiteti tomonidan haydab yuborilgan. Xalq ta’limida ishlash huquqidan mahrum qilingan.

Abdullaxonov Karimboboyevning yordami bilan shu yili kooperativ “Sovet” nomli kolxozga ishga joylashtirilgan. U bu yerda quloqlardan iborat yirik guruh tashkil etgan. Kolxozdagi ishlab chiqarishni izdan chiqarish, sotsialistik mulkni talon-taroj qilish, kolxozda zararkunandachilik olib borish, faollar, komsomol a’zolarini quvish, kolxozchilar orasida tartibsizlik keltirib chiqarishga harakat qilgan.

Yuqorida Karimboboyev va Abdurahmon Abdullaxonovning aksilinqilobiy faoliyati O‘lmas Jalilov, Ortiq Absarov, Sharipjon Abdullayev, Muxtor Isomiddinov, Qosim Hakimov, Abdulaziz Melixo‘jayev va boshqalar ko‘rsatmalari bilan tasdiqlangan. Ishda tegishli ma’lumotlar mavjud.

Ayblanuvchilar o‘zlariga bildirilgan ayblarni e’tirof etmaganlar.

Abdurahmon Abdullaxonov 1892-yilda tug‘ilgan, Marg‘ilon shahridan. “Sovet” kengashi ko‘chasida yashagan. Yirik savdogar. 40 tanob yerga ega, chorikorlarni ekspluatatsiya qilgan, oilali, partiyasiz. 1920-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun ChK organlari tomonidan qamoqqa olingan. 1930-yili 2-marta aksilinqilobiy faoliyati uchun GPU organlari tomonidan qamoqqa olingan. Hibsga olingungacha Marg‘ilon qishloq matlubotida magazin mudiri bo‘lib ishlagan. Harbiy majburiyati bo‘lmagan. SSSR fuqarosi, Marg‘ilon shahar militsiyasi tomonidan pasport olgan. Karimboboyev va Abdurahmon Abdullaxonovning jinoyat ishlari O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan belgilangan. Karimboboyev va Abdurahmon Abdullaxonovning ayblovi bo‘yicha bu ish uchlik tomonidan O‘zSSR NKVDsida ko‘rib chiqilgan.

1937-yil 27-noyabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi O‘zSSR NKVD Marg‘ilon shahar bo‘limi Uchlikning yig‘ilishida Abdurahmon Abdullaxonov sobiq quloq, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot rahbari sifatida 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddati 1937-yil 14-sentyabrdan hisoblangan.

Oradan 12 yil (!) o‘tib, 1949-yil 21-martda Farg‘ona oblast prokurori o‘rinbosari, Farg‘ona oblast davlat xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i Avanesovning profilaktika chorasini belgilash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan. Uning ijrosini ta’minlash Farg‘ona oblast davlat xavfsizligi boshqarmasi tezkor vakili, katta leytenant Arustanov, davlat xavfsizligi 5-bo‘lim mudiri, mayor Mitrofanov, tergov bo‘limining boshlig‘i, mayor Iksanovlarga yuklatilgan.

Qarorda shunday deyilgan: *“Men, davlat xavfsizligi ministrligi boshqarmasi Farg‘ona oblasti katta operativ vakili, katta leytenant Arustanov Farg‘ona oblasti Marg‘ilon shahrida 1892-yili tug‘ilgan, millati o‘zbek, SSSR fuqarosi, partiyasiz, savodli, katta boy oilasidan, tug‘ilgan joyi bo‘yicha yashayotgan, aniq mashg‘uloti bo‘lmagan Abdurahmon Abdullaxonovga tegishli materiallarni ko‘rib chiqib, quyidagilarni ma’qul topdim.*

*Abdurahmon Abdullaxonov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bo‘yicha jinoyatchilikda shubha ostiga olinganligidan ozodlikda yurib tergov va suddan bosh tortmasligi va ishni tekshirish jarayoniga ta’sir etmasligi uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 49-, 51-moddalariga asoslanib qaror qildim:*

*Tergov va suddan bosh tortgani, qarshilik bildirgani uchun Abdurahmon Abdullaxonov chora sifatida Davlat xavfsizligi ministrligi Farg‘ona oblasti boshqarmasiga qarashli ichki turmada saqlansin va mazkur qarordan tilxat asosida mahbus ogohlantirilsin.*

*O‘zSSR Jinoyat kodeksining 52-moddasiga muvofiq, mazkur qaror nusxasi prokuror va turma boshlig‘iga yuborilsin va mahbusning shaxsiy ishiga kiritilsin”.*

1949-yil 3-avgustda SSR Ittifoqi davlat xavfsizligi ministrligi qoshidagi maxsus kengashda Abdurahmon Abdullaxonov RSFSR Jinoyat kodeksi va O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, sovetlarga qarshi millatchilik tashkilotiga mansubligi uchun surgun qilingan.

**Izoh:** *Qahramonimizning so‘nggi taqdiri haqida ma’lumotlar izlanmoqda. Bu inson haqida xotiraga ega bo‘lganlar tahririyatga va mualifga xabar qilishi so‘raladi.*

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**tarix fanlari doktori,**
**professor**

XOTIRA AZIZ

# QATAG‘ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Abdujalil Mamatshoyev** – Yangiqo‘rg‘on rayoni, Kushon qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, o‘rtahol dehqon, oilali, sudlanmagan. Bosmachilik tashkilotining a’zosi va Kushon yacheykasi rahbarlaridan biri. Qo‘zg‘olonchi otryadlarga tashkilot a’zolari va askarlar yollagan. O‘zi yollagan yigitlardan iborat beshlikni boshqargan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Mulla Fozil Bobomuhammedov** – Namangan rayoni, Lyaskidon, Uychi qishlog‘idan. Savodli, o‘rtahol, oilali, sudlanmagan. Bosmachilik tashkiloti a’zosi, Nosirxonto‘raning boshqa sho‘balari bilan aloqa qilish bo‘yicha maxsus topshiriqlarni bajargan. Tashkilotning Uychi yacheykasi boshliqlaridan biri. Nosirxonto‘raning Mirzaravot qishlog‘idaligida Katay paxta jamiyatidagi o‘g‘rilikni sodir etishi uchun avvaldan tayyorlangan 6 nafar yigitni olib borgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalari bilan ayblangan.

**Xo‘jamberdi Madaminov** – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, bog‘bon, oilali, sudlanmagan. Bosmachi, qo‘zg‘olonchi tashkilot a’zosi, qo‘zg‘olonchi otryadlarga askarlarni jalb etgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalari bilan ayblangan.

**Madibragim O‘rinboyev** – Rovot qishlog‘ida yashagan, qipchoq. O‘zSSR fuqarosi, oilali, boyligidan mahrum etilgan, sudlanmagan. Bosmachi, qo‘zg‘olonchi tashkilot a’zosi. Tashkilotning Rovot yacheykasi rahbari. Askarlarni yollash bilan shug‘ullangan. Istambek yigitlarini jalb qilgan holda Rovot qishloq soveti raisiga qarshi terroristik akt tayyorlagan. Nosirxonto‘ra va Istambekni oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Karimboy Saidboyev** – Rovot qishlog‘ida yashagan, qipchoq. O‘zSSR fuqarosi, dehqon, kambag‘al, sudlanmagan. Bosmachi, qo‘zg‘olonchi tashkilotning a’zosi. Nosirxonto‘ra va Istambekni o‘z uyida yashirgan, ularni oziq-ovqat va kiyim bilan ta’minlagan. O‘zSSR JK 58-67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Mulla Nig‘mon Karimov** – Namangan shahridan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, Nosirxonto‘raning shogirdi. Ipakdan mato to‘qigan, oilali, savodli, sudlanmagan. Nosirxonto‘raning alohida topshiriqlarini bajargan. Bosmachi, qo‘zg‘olonchi tashkilotning a’zosi. Eshon Dadaxon bilan birga Kulqo‘rg‘onga 3 dona qirqma qurolni saqlash uchun olib borgan. Tashkilotning guruh va yacheykalari tor-mor etilgach, Nosirxonto‘rani Namangan shahrida yashirib, uning Janubiy Qirg‘izistonga qochishini tashkillashtirgan va o‘zi ham hamrohlik qilgan chog‘da qurol bilan qo‘lga olingan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Mulla Isroil Sodiqboyev** – Uzun qishlog‘idan. Millati o‘zbek. O‘zSSR fuqarosi, diniy xizmatchi oilasidan. Dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Mulkiy jihatdan o‘rtahol, Nosirxonto‘raning faol yordamchisi – Mulla Madraimning ukasi, uylanmagan, sudlanmagan. Bosmachi, qo‘zg‘olonchi tashkilotning a’zosi bo‘lgan va Nosirxonto‘raning aloqa bo‘yicha maxsus topshiriqlarini bajargan. Kosonga hujum qilingan kuni bosmachilar orasida bo‘lgan va militsiyani qurolsizlantirish vazifasini olgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Nigoraxon AKBAROVA,**
**tadqiqotchi**

**(Davomi kelgusi sonda).**

XONDAYLIQIY TAVALLUDINING 140 YILLIGI

# “Doimo ahli biliglar birla bo‘l...”

**Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy o‘z zamondoshlaridan, nazarimda, aynan qomusiyligi, serqirra ijodi bilan ajralib turadi. Sidqiy adabiy merosidan lirik g‘azallar, davr ijtimoiy voqeligiga munosabat she’rlar, hajviyalar, dostonlar, o‘ziga xos memuarlar, “zarbulmasal”lar, tarjimalar o‘rin olgan. Buni o‘z vaqtida jadidshunos Begali Qosimov ta’kidladi, tasnifladi, ijodidan namunalar berdi. Tadqiqotlarni davom ettirish yo‘llarini ko‘rsatdi. Sidqiyning 1998-yili nashr bo‘lgan “Tanlangan asarlari”ning o‘zi ham adib xususida yetarli tasavvurni beradi.**

Xondayliqiy ijodiy mahsuli bo‘lmish asar muallif biografiyasini o‘zida aks ettiradi. Shoir saodatli damlari, ishqiy kechinmalari, ijtimoiy dardlari, hamdlari, munojot va murojaatlari – bularning o‘zi bir olam. Har qanday shoir kabi Sidqiy ham o‘z ijodiy imkoniyatini va bahosini o‘zi yaxshi bilgan. Shunga ko‘ra u o‘zini “ahli fazl” sanaydi. Bu alohidalik, boshqalarga o‘xshamaslik degani. Bir o‘rinda *“Boshimga balo bo‘ldi fazlim mani, Ki yo‘q zarracha qadr-u qimmat mango”* deb yozsa, boshqa bir she’rida:

*“Har qayda qadr-u qimmati yo‘q bo‘lsa fazl elin,*

*Bozori dahr ichinda na bo‘lg‘ay baho mango”,* deydi. Fazl eli, ahli fazl, fozillar, sidqiylar balki, o‘z zamonida qadr topmagandir. “Bozori dahr” aro Sirojiddin Xondayliqiyning qadr-u qimmati bugun baland, deb o‘yladim.

“Sharofatdadir razolat eli” shu misrani o‘qiganimda alloma shoir Furqatning mashhur “Charxi kajraftorning bir shevasidin dog‘man, Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur”, degan mashhur hikmatiga uyg‘unligi xayolimga keldi. Shoirning yana bir muhim nasihati shuki: *“Fazl ahlini xizmatin na yerda Ersang, ani barho etib ket”.*



Sidqiy ijodida an’anaviy mumtoz adabiyotga xos obrazlar mavjud. Shoirning lirik-ishqiy g‘azallaridagi ifoda bayoni “g‘am gulshani”, “ishq otashi”, “hijron dashti”, “firoq vodiysi”, “vasl umidi” kabi qator mumtoz iboralar bilan bezatilganini ko‘ramiz.

Shoir sayohatlarga chiqadi. El-yurt kezadi. Ammo u Toshkentni yaxshi ko‘radi: “Biz ham necha shaharni ko‘rub sayr ayladuk, Toshkancha shahar uchramadi hech diyorda”. Shoirning umri, kayfiyati, didi shunday biografik xarakterli she’rlarida aks etadi. “Ehtiyoj” radifli g‘azali ham ana shunday xususiyatga ega. Shoir o‘z holini, iqtisodiy tangligini, ehtiyojmandligini bayon qiladi.

Shuningdek, shoir bisotida purma’no hikmatlarga yo‘g‘rilgan, pand-nasihatga uyg‘un she’rlari ham talaygina:

*“Qo‘lda mash’al qamg‘og‘ ichra o‘ynama,*
*Shisha olib toshlog‘ ichra o‘ynama...*
*Doimo ahli biliglar birla bo‘l,*
*Bola yanglig‘ qo‘ndog‘ ichra o‘ynama...”*

Shoirning hayotiy tajribalar aks etgan mana shu “O‘ynama” radifli g‘azali metaforik tabiatlidir. Uning tashqi ma’nosini ko‘chmaga ko‘chirib ancha tahlil etish ham mumkin.

Sidqiy ijodining umumpafosida ma’rifatparvarlik adabiyoti bilan o‘zbek jadid adabiyoti o‘zaro uyg‘un keladi. Sidqiy ijodining bir tomoni Muqimiy, Furqat, Zavqiylar ijodiga xos tendensiyalarni esga solsa, ikkinchi tomondan jadid adabiyotiga xos xususiyatlarni o‘zida jamlaydi. Ilmga chaqiruv, johildan qochuv, ijtimoiylashuv, hurlikni qo‘msov va shu kabi ohanglar adib ijodida o‘z uslubiga xos ravishda namoyon bo‘ladi.

Sirojiddin Xondayliqiyning adabiy ijodida birlik, ittifoq bo‘lish, hurriyatning qadriga yetish kabi ijtimoiy-umuminsoniy tushunchalarning adabiy talqini kuzatiladi. Birlik, ittifoq bo‘lishni insonning joni bilan jismiga taqqoslaydi. Birlik, ittifoqdan ayrilgan jismni misoli jonsiz tanadir. “Birlashayluk, ishlashayluk bas bo‘lub qo‘lu qanot!”. Kompozitsiyasiga ko‘ra har bandi o‘n ikki misradan tarkib topgan o‘n ikki bandli “Umidi ittifoq” deb nomlangan bu tarjiband 1918-yil 1-fevralda nashr etilgan. Oradan bir hafta o‘tib Turkiston muxtoriyati qonga botiriladi. Bu esa ittifoqsizlikning ayanchli oqibatidir. Yetmish ikki kun yashagan – abadiyat oldida bir lahza umr ko‘rgan Turkiston muxtoriyati jadidlar davri ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayotida juda muhim hodisa edi. Maxsus tekshirib, statistikasiga diqqat qaratib, aynan uch oyga yetmagan oraliqdagi jadid shoirlari yozgan she’rlarni kuzatdim. Barchasida hurriyat dardi, uni saqlab qolish niyati, birlashmoqqa da’vat va taassufki, Muxtoriyat qo‘ldan ketgandan keyingi afsusnomalar kuzatiladi. Zarurat bo‘lganida birlashmaslik, oraga nifoq va fitnalar solishning oqibati yomon. Shoir shundan ogohlantiradi: *“Nifoq elini ko‘p beqaror aylag‘ay, Ki oxir chog‘i xor-u zor aylag‘ay...”*

Savol-javob uslubida yozilgan “Zarbulmasali Sidqiy”ida shoir hayotiy tajribadan o‘tgan haqiqatlarni jamlaydi. Deylik: “Savol: Yig‘inda o‘ltirg‘on nodonning izzati nadur? Javob: Jim o‘tlirmoq...”

Bir sahifada o‘qidim: “Tama yo‘lbarsni chibin qilur”. Aynan juda donishmand xalq hikmati. Bu gap hazrat Navoiyning *“Xorlig‘lar boshi tama bilg‘i, Doimo “azza man qana bilg‘il”* misralarini esga soladi. Sidqiy “Qaydlari”da yozadi: “Qachon haqiqat maydong‘a qo‘yulsa, nohaqlik yer ostiga kirar, lokin haqiqatni yuzaga chiqarurg‘a erk bermaslar”. Muallifning yana ko‘plab nasriy asarlari, tarjimalari, “Tazkirai Imomi A’zam”, “Roznomai Muso alayhissalom” kabi diniy mazmundagi asarlari ham muhim, taqriz-u tadqiqotlarga arzigulik bitiklardir.

Bundan bir asrdan ko‘proq vaqt avval Bo‘stonliqning Xondayliqidan porlab chiqqan quyosh nurlari hali shu kunga dovur insonlar qalbiga, ma’rifattalab o‘quvchilar ko‘ngliga nur bag‘ishlab turibdi.

**Bahodir NURMUHAMMAD**

TARMOQLARDA NIMA GAP?



# QARDOSHLAR DO‘STLIGI

**Men uchun Parij Olimpiadasining eng katta yutug‘i – bu Markaziy Osiyo xalqlarining bir-biri bilan mislsiz darajada yaqinlashgani, bir-birini qo‘llab-quvvatlab, do‘stona munosabatlarimiz har doimgidan ham mustahkamlangani bo‘ldi.**

Ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar, postlar, videotasvirlarni ko‘rsangiz, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, shuningdek, Afg‘onistondagi o‘zbeklar, ozarbayjonlar, turklar va boshqa turkiy xalqlar qay darajada bir-biriga samimiy muxlislik qilganiga guvoh bo‘lasiz. Bejiz sportni do‘stlik va tinchlik elchisi, deyishmas ekan.



Ochig‘i, shunaqa videolarni ko‘rsam va izohlarni o‘qisam, quvonganimdan hayajonlanib, etlarim jimirlab ketadi negadir.

Olimpiada o‘tadi-ketadi, olingan medallar ham oddiy statistikaga aylanadi, ammo do‘stlik abadiy qoladi. Do‘stlik va totuvlik har qancha oltin medaldan qadrliroq.

Turkiy xalqlar birdamligi abadiy bo‘lsin, do‘stligimizga ko‘z tegmasin, birligimizni ko‘ra olmaydigan dushmanlarning yuzini teskari qilsin!

**Xushnudbek XUDOYBERDIYEV,**
**xushnudbek.uz telegram kanali**

# PULNI KIMDAN QIZG‘ANYAPSIZ, “BYUDJET QO‘RIQCHILARI”?

**Shu kunlarda Olimpiada g‘oliblariga berilgan pul, uy va ulovni muhokama qilayotgan “vatanparvar”larning postiga tez-tez ko‘zim tushyapti. Alamzada bu odamlarga baribir gap ta’sir qilmaydi. Ammo jim turish ham g‘alati. Ba’zi mulohazalarimni yozmoqchiman.**

1. Yozgi Olimpiada medallarini fizika, kimyo, adabiyot, tinchlik, fiziologiya yoki tibbiyot hamda iqtisodiyot sohalaridagi Nobel, kino sohasidagi Oskarga tenglashtirish mumkin. Aslida keyingi ikki mukofot har yili, Olimpiada esa to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi.

2. Tan olishimiz kerakki, O‘zbekiston nomini dunyo davlatlarining siyosiy elitasi yaxshi bilsa ham, ular bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilgan esa-da, oddiy odamlar orasida hamon davlatimizni bilmaydiganlar bor. Ular uchun Samarqand, Buxoro degan tarixiy shaharlar, Imom Buxoriy, Navoiy, Ibn Sino, Beruniy degan tarixiy shaxslar yaxshi tanish. Yurtimiz Osiyoning markaziy qismida ekanini bilishadi. Ba’zan Pokiston yo Qozog‘iston bilan adashtirib ham qo‘yishadi.

Olimpiada bahonasida esa ana shunday qatlamga ham Vatanimiz nomi va lokatsiyasini ko‘rsatib qo‘ydik.

3. Sportchilarimiz Olimpiadaga yetib borguncha ozmuncha xarajat qilganmi? Bolalikdan sport mashg‘ulotlari, keyinroq safarlar va boshqa chiqimlar. Aksari oddiy oiladan chiqqanini hisobga olsak, mehnatlari rohatini ko‘rishi kerak-ku.

4. Xalqimiz azaldan mard polvonlarni boshida ko‘targan. Oriyat uchun moli nima ekan, jonini ham tikkan. Shu orqali o‘z farzandlarini ham kuchli, jasur va kurashchan bo‘lishiga umid qilgan, shunday bo‘lgan ham.

5. Oxir-oqibat Olimpiada g‘oliblariga berilgan jami pul, uy va ulovlar narxi qo‘shilib, O‘zbekiston aholisiga bo‘linganda jon boshiga 500 so‘mdan ham tushmas ekan.

6. Shunday davlatlar borki Olimpiadaning bronza medaliga ham zor. Bittagina medal olgan sportchisini boshiga ko‘tarib yuribdi.

7. Davlat bersa shu pulni o‘zbekning bolasiga beribdi. Shuni bayroq qilib, o‘zidan vatanparvar, byudjet qo‘riqchisi yasab olib, ijtimoiy tarmoqlarda shovqin solayotganlarning maqsadi nima? Piar! Tirnoq tagidan kir qidirish.

Xulosa. Turkiylar azaldan jangari, qonida kurash hissi oqqan xalq. Sportdagi har bir g‘alaba bu xalqqa cheksiz-chegarasiz baxt ulashadi. Millionlab odamlar bugun Olimpiada g‘oliblariga shon-sharaf yog‘dirmoqda. Odamlarning quvonchini sindirmang.

**Otabek BAKIROV,**
**Facebook**

ZARDA

# “Shuncha bo‘lurmi, hay-hay...”

**Eskirsayam esi kirmagan birovlarni aytishicha, insonni chipor tovuqdan farqi shuki, unga don-suvdan ko‘ra, shov-shuv, oldi-qochdi zaril ekan. Qanaqasiga deyishga shoshmay turing.**

**Hozirgi uzunquloq zamonda eng bozorgir matoh bu – shir yalang‘och vayn va betayin latifalar bo‘p qoldi. Qo‘pol bo‘lsayam aytay, xalqimizda nega kulasan, ochib qo‘yibdimi, degan gap bor. Obunachi yig‘aman, zumda olami jahonga mashhur bo‘laman, deb umrida teatr-u kino chiptasini iskab ko‘rmagan mishiqinusxalar hamma narsani “ochib qo‘yib” sahnalashtirilgan sharmandaliklarni tarqatishyapti. Bu ITdan tarqagan lavhalarni yarmi keks, qolgani notekis, tavbangdan ketay...**



Husan SODIQOV chizgan rasm.

Mana, bir jigit minan qiz quvalashib, oshxonaga chiqib qoldi. Ikkoviniyam qo‘lida tilpon. Er jonivor “yana bittagina... xop degin”, desa, xotin hindi kino artislariga o‘xshab buralganicha “bir kunda bir marta”, deb chandon yo‘rg‘alaydi. Yigitcha “kel endi, yana bir marta, o‘lib qolmaysan”, deya ichkari tortib ketdi. Videoga olayotgan zang‘ar jigitdanam sho‘xakan, farosati bilan qo‘ydi-chiqdi bo‘lgan er-xotinni orqasidan yotoqxonaga oshiqib kirib ketdi.

Ishqilib, atrofda u-bu kim ko‘rib turmayaptimikan, deb alang-lagunimcha, ichkarida bir-birini oyog‘i tomoniga bosh uzatib yotvolgan ikki befarosat shaqillatib... shaqillatib pabji o‘ynayapti. Jigit o‘lgur buytib xayolni quyunga tortib, shuytib ayolni o‘yinga tortib turgan jeri eka-a-a-n.

Feysbukni Quddus mikroskop dayusbuk deganicha bor ekan. Birov bu kimning qizi, kimning singlisi-yu kelini demaydi-ya. Basharasiga to‘ng‘iz terisini tortib, allambalo makiyaj urgan bu oyimtillalarniyam ori qo‘ziydigan hech kimi yo‘g‘mikin?! Tavba...

Katta sahnalarga chiqib, minglab erkaklar yonida bedana yurish-u churrak turish qilib, jalloblik kasb etgan, og‘zidan chiqqan beparda gapga Qo‘qonning qo‘ybozoridagi dallollar do‘ppisini ko‘ndalang tishlab qoladigan “zaifa”larning tirikchiligini nima deb atash mumkin?

Bunaqada “Dizayn”u “Million”lar changingda qop ketadiyu, baraka topkurlar!

Qo‘shnimni boshlang‘ich sinfda o‘qiydigan qizchasini o‘lchamidagi yengi yo‘q ko‘ylakka oqayiqday gavdasini tiqqan bir juvon o‘zini reklom urib chiqqanida, bechora bo‘z yigitlarga rahmim kelgandi. Tik-tok degan bir baloyi ofatni nomini eshitsam yuragim g‘ashiqqan qoplonday irillaydi. O‘qig‘uchiga og‘ir kelmasin, deb eng odobli lavhalarni keltiryapman.

Mana yana bittasi: ikki dugona – yosh qizlar katta yo‘lda mayda qadamlar bilan sollanib, bir-biriga suyanib kelisharkan, bir yigitcha archa ortidan olimpiada marafonchisiday halloslab yugurib chiqib qoldi. Salom-alikniyam start nuqtasidagi kalta ishtonida qoldirgan shekilli, to‘satdan savol beryapti: “Qizla, silaga savol, dunyodagi eng zaharli ilon nima uchun o‘z zahridan zaharlanib o‘lmaydi?” Ushbu donishsifat so‘rov egasiga aqli Eyfelga yetgan qiz javob-so‘rog‘i bilan aperkot qo‘ydi: “Oka, sizgayam bir sovolde, ne dunyodegi eng baquvvat erkeyam o‘zining “zahridan” ikkiqat bo‘pqomedi?” Ana sizga latofat-u, mana sizga fasohat!

**Bir maslahat:** qadim zamonlarda qiz so‘rab borgan sovchilar bo‘lajak quda tomonning urug‘-aymog‘i-yu, nasl-u nasabini surishtirardi. Kelin taraf ham kuyov bo‘lmishning kasb-u kori, kasallik varaqasini taftish etardi. Menimcha, endi nomzod tomonning tilponini amal-taqal qo‘lga kiritish kifoya.

**P/S:** *Sen menga bolang qaysi tarmoqqa kirishini ayt, men sening kimligingni aniq aytib beraman* **(zamonaviy maqol).**

**Mulla XUNOB**

TILBILIM

# BOJA, BAJANAK, BOLDIZ, POCHCHA

**Bulg‘oristonlik bir tanishim “bajanak”, “baldiz” so‘zlarini bulg‘orlar ham ishlatishini aytgandi. Ba’zi turkiy lahjalarda boja, ya’ni opa-singil yoki qarindoshlarga uylanganlarga nisbatan “bajanak” deyiladi, “boldiz” esa, o‘zbek tilida ham “xotinning singlisi, qayinsingil” ma’nosiga ega. Bulg‘orlarda ham “badjanak” – boja, “baldiz” – xotinning singlisi, boldiz ma’nolariga ega ekan.**



**Bajanaklar – Sharqiy Ovro‘podagi gagauz (ko‘ko‘g‘uz) xalqi ajdodlari.**

Hozirgi bulg‘orlar qadimgi bulg‘or turklarini o‘zlarining ajdodlari deb bilishadi. Ularga nafaqat “bulg‘or” nomi, balki qadimgi bulg‘or turkchasidagi ko‘pgina so‘z-o‘zaklar ham meros bo‘lib qolgan. Bundan tashqari, Usmonli davlati tarkibida kechgan besh asrlik davr mobaynida bulg‘or va boshqa bolqon xalqlari tillariga usmonli turkchadan ko‘plab turkiy so‘zlar o‘tgan. Shunday qilib, hozirgi bulg‘or tili slavyan tillari oilasiga kirsa-da, tagzaminida turk tili yotadi.

“Badjanak”, “baldiz” so‘zlari bulg‘or tiliga, bizningcha, qadimgi bulg‘or turkchasidan emas, keyinchalik, usmonli turkchasidan o‘zlashgan. Chunki usmonli turkchasida “boja” – “bacanak” (“bajanak”), “qayinsingil, boldiz”– “baldiz” shaklida ishlatiladi. Afsuski, “boldiz” hozirgi o‘zbek tilida tobora iste’moldan chiqib, o‘z o‘rnini “qayinsingil”ga butunlay bo‘shatib bermoqda.

“Turkiy tillarning etimologik lug‘ati”da “bajanak”ning qadimiy shakli “ba:ja” (birinchi bo‘g‘in unlisi cho‘ziq) bo‘lganligi aytiladi. Demak, bu so‘zning “bajanak” emas, “boja” shakli qadimiyroq ekan. “Bajanak” (“bajanaq”, “bajinaq”, “bajinah”, “pajanak” va hokazo) esa – “ba:ja” so‘ziga “-(a)naq” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan va bu qo‘shimcha kichraytirish ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin. Bizningcha, “bajanak” deyish ko‘proq o‘g‘uz lahjasi, xususan, turk, ozarbayjon, gagauz (ko‘ko‘g‘uz) va boshqa g‘arbiy turk tillariga xos, ular orqali bu so‘z fors, arab, arman, bolqon xalqlari, jumladan, bulg‘or, serb, xorvat tillariga ham o‘tgan. Tojik tilidagi “boҷa” esa, bizningcha, o‘zbek tilidan o‘zlashgan.

Shuningdek, o‘zbek va tojik tillarida opaning yoki yaqin qarindoshning eriga nisbatan “pochcha” (“pochcho”) so‘zi ishlatiladi (shevalarda: “bəchchə”, “guyəv pəchchə”, “kuyəv pəchchə”, “jezdə”, “jezzə”, “yezdə”, “yazna”). “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati”dan ko‘rinadiki, “boja” so‘zi ba’zi turk xalqlari tillari, shevalarida “paja”, “pacha”, “pachanak” kabi shakllarda ham qo‘llanadi. Ba’zi shevalarda esa bu so‘z “kuyov”, “opaning eri” ma’nolariga ega. Shu nuqtai nazardan qaralsa, mazkur jihatlar “pochcha” ham “boja” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, degan taxminga olib keladi.

“Boja”, “bajanak” so‘zlari etimologiyasi xususida ba’zi mutaxassislar bu so‘z asosida qadimgi turkiydagi “singil” ma’nosidagi “baji” yotadi, degan fikr bildirgan. “Bajanak”, “boldiz” so‘zlari “Devonu lug‘otit-turk”da ham bor. Mahmud Koshg‘ariy “boldiz”ga “Devon”da shunday izoh beradi: “baldïz – xotinning singlisi. Erning singlisiga “baldiz” deyilmaydi, “singil” deyiladi”.

“Devonu lug‘otit-turk”da “bajanak” so‘zi ham uchraydi. Ammo u “Devon”da “boja” ma’nosida emas, balki o‘g‘uz turklarining yigirma ikki urug‘idan birining nomi sifatida tilga olinadi: “o‘n to‘qqizinchisi: bäǰänäk – bajanaklardir. Ularning tamg‘alari shunday...”, deyilib, tamg‘aning shakli keltiriladi. Boshqa bir o‘rinda esa Koshg‘ariy bajanaklarni Rumga (Vizantiyaga) eng yaqin joylashgan qabila sifatida tilga oladi: “Rumgacha cho‘zilgan bulg‘ar, suvar, bejeneklar tili bir xildagi so‘zlarning oxiri qisqartirilgan bir turkchadir”.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, Mahmud Koshg‘ariy nafaqat tilchi olim, balki o‘z davrining boshqa ilmlari, xususan, jug‘rofiyadan ham yaxshi xabardor, turklar yashaydigan ko‘p o‘lkalarni kezgan jahongashta alloma edi. Shuning natijasi o‘laroq, u turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni qamrab olgan xarita ham yaratib, uni “Devon”ga ilova qilgan. Mazkur xaritada ham bajanaklar eng g‘arbiy chegara – ruslar, saqoliblar (slavyanlar) va faranglar (ovro‘poliklar) bilan yonma-yon hududda ko‘rsatilgan. Bu esa Koshg‘ariyning XI asrda bajanaklar qaysi hududda yashaganlari haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lganligidan darak beradi.

Xo‘sh, bajanaklar qanday qilib Sharqiy Ovro‘poda paydo bo‘lib qoldi? Tarixchilarga ko‘ra, o‘g‘uzlarning bir bo‘g‘ini bo‘lgan bajanaklar IX asrgacha Orol dengizi, Sirdaryoning Orolga quyilish havzasi hududlarida yashagan. IX asrga kelib esa o‘g‘uzlarning boshqa urug‘lari tomonidan siquvga olingan bajanaklar Volga bo‘ylariga ko‘chib ketadi va keyinchalik Qora dengizning shimoliy hududlarini zabt etadi.

Rus yilnomalari, Ovro‘podagi tarixiy hujjatlarda bajanaklar – “pecheneglar” deb qayd etilgan. Kiyev Rusi davrida Vizantiya va Kiyev Rusi o‘rtasida mavjud bo‘lgan “Varyagdan Yunongacha” atalmish savdo yo‘lida bajanaklar yunonlar va ruslar o‘rtasida muhim vositachilik rolini o‘ynaydi. Keyingi asrlarda bajanaklar Sharqiy Ovro‘po xalqlari, xususan, hungarlar va boshqa xalqlar tarkibiga singib ketib, ko‘pgina xalqlar etnogenezida ishtirok etadi. Shuningdek, bajanaklar Sharqiy Ovro‘podagi gagauz (ko‘ko‘g‘uz) xalqi ajdodlaridan hisoblanadi. Ovro‘poda bajanaklar juda ko‘p tarixiy iz qoldirishgan, bajanak yoki pecheneg bilan bog‘liq talaygina joy nomlari, so‘zlar yasalgan.

O‘g‘uzlarning bu urug‘i nomining kelib chiqishi haqida ko‘pchilik mutaxassislar, xususan, etimologiya ilmining yirik vakili M.Fasmer ham, uning yuqorida tilga olingan “boja” ma’nosidagi “bajanak” bilan bir so‘z ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni, bajanak yoki ruscha aytganda, pecheneg “boja” demakdir.

**Abduvohid HAYIT**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Bosh muharrir:**
Iqbol Mirzo

**Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:**
Humoyun Akbarov

**Mas’ul kotib:**
Shuhrat Azizov

**Navbatchi muharrir:**
Muhayyo Pirnafasova

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 924
Lotin yozuvidagi adadi – 11 924
Media kuzatuvchilar – 19 737
Buyurtma: G – 840.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 18:40
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz